



Baxtiqaro "N" "H" (Ikkinchi maqola) 11-bet



Kuch — bilim va tafakkurda

# Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 23-iyun, chorshanba № 25 (9350)

Xalq ziyolilari gazetasi



Murojaatlar javobsiz qolmoqda,  
qachon  
uyg'onasiz,  
mutasaddilar?



O'qituvchi nimani o'ylaydi?  
Maktabimizda deyarli barcha o'qituvchilar oliy ma'lumotli. Ammo o'qituvchi yetishmaydigan chekka hududlarda ahvol achinarli. Amakimning qizi pedtexnikumni sirdan bitirgan edi. Hozir 5-sinflarga 5 soat matematika, 1 soat geografiya, 1 soat botanika va 2 soat rus tilidan dars beryapti. Men esa 5 yil universitetda o'qib, oliy toifali o'qituvchi sifatida zo'rg'a 0,5 stavkada ishlab kelyapman.

Zebo G'ANIYEVA



Hozir shahar bolalarini bilmadim-u, bizda o'quvchilar tezroq pul topish haqida o'ylaydi. Ba'zilari oilaviy hunar egallasa, boshqasi tezroq chetga chiqsa-yu, ko'proq pul topsa... Vazirimiz ham yuqori sinf o'quvchilari kasb egallab pul topayotganini gapirdi. Lekin bu ko'pchilik bolalarning ilm-fanga emas, kasb-hunarga qiziqishi kuchayishiga olib keladi. Baribir oliy ma'lumotli insonlar yashayotgan jamiyatda o'sish, rivojlanish tezlashadi, ular tarbiyalagan farzandlar ham har jihatdan yetuk bo'ladi. Bugungi yoshlar hayotni faqat moddiy jihatdan yaxshilashni ustun qo'yishmoqda.

Tursunoy HASANOVA



Shu yil maktabimizda "Zo'r klass" loyihasi bo'yicha Rossiyadan kelgan o'qituvchi Yelena Alekseyevna bir muddat ishladi. U darsliklarda ko'proq grammatikaga urg'u berilgani, til o'rganishga esa u qadar ahamiyat qaratilmagani haqida kuyinib gapirdi. Shuning uchun Yelena darslikni yig'ishtirib, faqat lug'atga, ayniqsa, talaffuzga ko'p e'tibor berdi. Yil oxirida o'quvchilarimizning tillari ruschaga qovushadigan bo'lib qoldi. Aslida ham til o'rganishda grammatika emas, og'zaki nutq, muhit muhim.

Sarvinov SUNNATOVA

Gazetamizda ko'plab sohalardagi jarayonlar, mavjud shart-sharoit va muammolar yuzasidan tanqidiy-tahliliy maqolalar, taklif va muhohazalar bitilgan maktublar ko'p chop etiladi. Tahririyat ana shu muammolar yechim topishi, taklif va fikrlar o'rganib chiqilib, lozim bo'lsa amaliyotga joriy etilishi, eng muhimi – ko'tarilgan mavzu qog'ozda qolib ketmasligi uchun ushbu maqolalar yuzasidan tegishli tashkilotlarga xat bilan murojaat qiladi.

Raqamlarga e'tibor qaratsak, 2021-yil boshidan hozirgi kunga qadar chop etilgan maqolalar yuzasidan 49 ta rasmiy xat tashkilotlarga jo'natilgan. Ularning 33 tasi Xalq ta'limi, 9 tasi Oliy va o'рта maxsus ta'lim vazirligiga, qolgan 7 tasi esa boshqa

lat qaror topayotganidan xursand bo'lsak, ba'zilarida yoritilgan muammo qolib, muammoni ko'targan muallifning shaxsiga bosim uyushtirilgan dinni xira qiladi. Ba'zan esa shunday javob xatlari keladiki, ularda muammo o'rganilmagani, shuncha-

"So'rovingizga muvofiq "Ma'rifat" gazetasining 2021-yil 27-yanvardagi (№4) sonida chop etilgan "Darsliklar nashri va "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri" sarlavhali maqola Agentlik mutaxassislari tomonidan tegishli tartibda o'rganildi.

Maqola muallifi, taniqli tarjimon hamda Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, professor Xurram Rahimov darsliklarni nashr etish jarayonlariga oid bir qator muammolarini to'g'ri tilga olgan. Xususan, uning maktab o'quvchilari uchun darsliklarni chop etishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, darsliklar yuzasidan o'tkazilayotgan tenderlar borasidagi fikrlari,

fanalishi hamda amaldagi Texnik reglamentga muvofiqligini ta'minlash, matbaa mahsuloti sifatidagi holati uchun javobgardir.

Shunga ko'ra, maqolada tilga olingan masalalarning asos negizi (mualliflar, tender masalalari) bo'yicha tegishli vakolatli vazirlik va idoralardagi mutaxassislarining ham fikri olinishi o'rindi, deb hisoblaymiz".

Javob xatida ta'kidlanganidek, darsliklarga muallif tanlash va ularning mazmuniga Respublika ta'lim markazi mas'ulligi haqiqat, ammo maqolada ta'kidlab o'tilgan "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri borasida Agentlik o'z munosabatini bildirmagani taajjubli.

### Mutasaddilardan javob keldi

tashkilotlarga yuborilgan. Afsuski, murojaatlarimizga har doim ham o'z vaqtida javob ololmaymiz, ayrimlari esa bir necha oy o'tganiga qaramay hamon javobsiz. Aniq qilib aytadigan bo'lsak, buguncha 49 ta xatdan 13 tasiga javob keldi. Shulardan 7 tasi Xalq ta'limi vazirligidan (33 ta xatdan 7 tasiga javob berildi), 2 tasi viloyat xalq ta'limi boshqarmalaridan, 4 tasi boshqa turli tashkilotlardan kelgan. Ajablanarlisi, Oliy va o'orta maxsus ta'lim vazirligiga jo'natilgan 9 ta murojaatga hali ham javob qaytarilmadi. Afsuski, bunday mas'uliyatsizlik ortida tizimdagi qancha-qancha muammolar e'tiborsiz qolayotganini fahmlash qiyin emas.

Vaholanki, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 28-moddasida murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari quyidagicha belgilab o'qoyilgan:

"Ariza yoki shikoyat masalani mazmunan hal etishi shart bo'lgan davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa, bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun tekshirish o'tkazish, qo'shimcha materiallarni so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari tegishli davlat organining, tashkilotning rahbari tomonidan istisno tariqasida uzog'i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

Taklif davlat organiga, tashkilotga yoki ularning mansabdor shaxsiga kelib tushgan kundan e'tiboran bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi, qo'shimcha o'rganishni talab etadigan takliflar bundan mustasno bo'lib, bu haqda taklifni kiritgan jismoniy yoki yuridik shaxsga o'n kunlik muddatda yozma shaklda xabar qilinadi".

Murojaatlarimizga kelgan javobni gazetamizning "Mutasaddilardan javob keldi" rukni orqali gazetxonlarga yetkazamiz.

Javob xatlarining ba'zilarini orqali muammo yechim topayotgani yoki ado-

ki rasmiy xatga rasmiy javob yo'llangani bilinib turadi ("Ma'rifat" gazetasi 17-mart, 11-sonida "Men ne deyman-u, qo'bizim ne deydi" maqolasida Jizzax viloyati Axborot-resurs markazi (bolalar kutubxonasi) rahbari Anvar Yo'ldoshevning maqolasi yuzasidan Xalq ta'limi vazirligining bildirgan munosabatini bunga misol keltirsak bo'ladi).

Quyida yana ba'zi maqolalar yuzasidan mutasaddilarning bildirgan munosabatlarini o'qib, xulosa qilishimiz mumkin.

### "Darsliklar nashri va "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri"

Professor Xurram Rahimovning mazkur sarlavhadagi maqolasida darsliklarni sifatli chop etishda nashriyotlarning sa'lohiyati, darsliklarni chop etish bo'yicha o'tkaziladigan tender tanlovlarning xolis emasligi ta'kidlangan. Shu bois ham aksariyat darsliklar son-sanoqsiz xatolarga to'la, deydi muallif. Darslik mualliflari va muallif jamoasi shaklanishida, darsliklar ekspertizasida ham guruhbozlik, mahalliychilik va h.k. holatlar borligi tanqid qilingan. "Darsliklarni nashr qilish xuddi biznesga aylanib bormoqda. Hozir maxsus mutaxassislari bo'lmagan, asosiy faoliyati matbaachilikdan iborat "ColorPAK"dek xususiy korxonalar kimlardir o'rtaga solib darsliklarni nashr qilishni qo'lga olyapti... Bir paytlar mamlakatda 10 ta cha maxsus fanlar bo'yicha tahririylarlari bo'lgan "O'qituvchi" nashriyoti bor edi. Biroq noshirlikdan xabari yo'q turli katta-kichik rahbarlarning noshud faoliyati natijasida bu nashriyotning bugungi kunda bittagina umumiy tahririylati, to'rt-beshtagina muharriri bor. Endi bu nashriyot ham davlat tasarrufidan chiqib, xususiy lashtirishga mahkum etilgan. Agar bu nashriyotni ham biror nomutaxassis tadbirkor xususiy lashtirib olsa bormi, u qanday darslik chiqara boshlashi mumkinligi tasavvurga sig'maydi, chunki uni darslikning sifati emas, eng avval bu nashrdan unga qancha foyda kelishi qiziqtiradi", deya juda dolzarb va og'riqli masalalarni ko'targan edi muallif.

Tahririyatimiz tomonidan ushbu maqolada ko'tarilgan muammolar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga murojaat qilingan edi. Agentlik quyidagi javob xati bilan munosabat bildirgan:

# Murojaatlar javobsiz qolmoqda,

AGENTLIK TO'MONIDAN BILANSH O'YINCHILARINING BIR QATOR MUAMMOLARINI TO'G'RI TILGA OLGAN. XUSUSAN, UNING MAKTEB O'QUVCHILARI UCHUN DARSLIK LARNI CHOP ETISHDA YO'L QO'YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR, DARSLIK LAR YUZASIDAN O'TKAZILAYOTGAN TENDERLAR BORASIDAGI FIKRLARI,

"Ma'rifat" - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

2021 yil 23 iyunda  
33-tasi hamon javobsiz

Suzhantani muayyafa "Ma'rifat" gazetasi ning 2021 ilki 27 yanvardagi (№4) sonida chop etilgan "Darsliklar nashri va "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri" sarlavhali maqola Agentlik mutaxassislari tomonidan tegishli tartibda o'rganildi.

Maktab o'quvchilari uchun darsliklarni chop etishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, darsliklar yuzasidan o'tkazilayotgan tenderlar borasidagi fikrlari, fanalishi hamda amaldagi Texnik reglamentga muvofiqligini ta'minlash, matbaa mahsuloti sifatidagi holati uchun javobgardir.

Shunga ko'ra, maqolada tilga olingan masalalarning asos negizi (mualliflar, tender masalalari) bo'yicha tegishli vakolatli vazirlik va idoralardagi mutaxassislarining ham fikri olinishi o'rindi, deb hisoblaymiz".

Javob xatida ta'kidlanganidek, darsliklarga muallif tanlash va ularning mazmuniga Respublika ta'lim markazi mas'ulligi haqiqat, ammo maqolada ta'kidlab o'tilgan "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri borasida Agentlik o'z munosabatini bildirmagani taajjubli.

Javob xatida ta'kidlanganidek, darsliklarga muallif tanlash va ularning mazmuniga Respublika ta'lim markazi mas'ulligi haqiqat, ammo maqolada ta'kidlab o'tilgan "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri borasida Agentlik o'z munosabatini bildirmagani taajjubli.

AGENTLIK TO'MONIDAN BILANSH O'YINCHILARINING BIR QATOR MUAMMOLARINI TO'G'RI TILGA OLGAN. XUSUSAN, UNING MAKTEB O'QUVCHILARI UCHUN DARSLIK LARNI CHOP ETISHDA YO'L QO'YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR, DARSLIK LAR YUZASIDAN O'TKAZILAYOTGAN TENDERLAR BORASIDAGI FIKRLARI,

"Ma'rifat" - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

2021 yil 23 iyunda  
33-tasi hamon javobsiz

Suzhantani muayyafa "Ma'rifat" gazetasi ning 2021 ilki 27 yanvardagi (№4) sonida chop etilgan "Darsliklar nashri va "O'qituvchi" nashriyoti taqdiri" sarlavhali maqola Agentlik mutaxassislari tomonidan tegishli tartibda o'rganildi.

### "Buyruq ortidagi mashmasha"

yoxud rahbarlarning asosiy faoliyati va vakolatini bilmasligi nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida"

Mazkur sarlavhali maqola gazetamizning 2021-yil 10-mart (№10) sonida nashr qilingan edi.

Denov tumanidagi 75-maktab o'qituvchisi Nilufar To'rayeva uch yildan buyon faoliyat yuritayotgan maktabida ishga qabul qilinganlik buyrug'isiz ishlab hayotiyotgan baho qilib, maktab direktori tomonidan asossiz ayblanadi. Qiziq, o'qituvchi o'z arizasiga ko'ra qachondan buyon o'ziga buyruq chiqaradigan bo'lgan? Rahbarning bunday qushuqonga sig'maydigan ayblovi natijasida jurnalistik surishtiruv o'tkazilib, mavjud vaziyat o'rganilgan va o'qituvchining haququqlari himoya qilingan edi.

Maqola chop etilganidan so'ng muammoga e'tibor qaratilishini so'rab Surxondaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasiga xat bilan murojaat qilindi. Quyida viloyat XTBdan kelgan javob xati bilan tanishing:

"Ma'rifat" gazetasi ning 2021-yil 10-martdagi 10-sonida chop qilingan "Buyruq ortidagi mashmasha yoxud rahbarlarning asosiy faoliyati va vakolatini bilmasligi nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida" deb nomlangan maqolada bayon qilingan masalalar Surxondaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasining mutaxassislari tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganish jarayonida Denov tumanida-

SURXONDARYO VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI  
 DEPARTMENT OF PUBLIC EDUCATION SURXONDARYO REGION  
 19900, Tashkent, Ferozko'chasi, 100A  
 Tel: +998 77 838 27 544  
 Fax: +998 77 838 27 544  
 e-mail: xtb@surxondaryo.gov.uz  
 2021-y. 10-iyun. 10-son. № 10/10-03009

"Ma'rifat" gazetasidagi bosh muharrir R. Jililov

2021-yil 10-martdagi 10-sonida chop qilingan "Buyruq ortidagi mashmasha yoxud rahbarlarning asosiy faoliyati va vakolatini bilmasligi nimalarga olib kelishi mumkinligi haqida" deb nomlangan maqolada bayon qilingan masalalar Surxondaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasining mutaxassislari tomonidan o'rganib chiqildi.

Maktab o'quvchilari uchun darsliklarni chop etishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar, darsliklar yuzasidan o'tkazilayotgan tenderlar borasidagi fikrlari, fanalishi hamda amaldagi Texnik reglamentga muvofiqligini ta'minlash, matbaa mahsuloti sifatidagi holati uchun javobgardir.

Asosiysi — bizga bino kerak emas. Bino Markazga kerak!

gi 75-sonli maktab direktori A.Abduleyev va boshlang'ich sinf o'qituvchisi To'rayeva Nilufar o'rtasidagi munosabatlarga oydinlik kiritildi. Maktab direktorining 2021-yil 10-fevral kunidagi 27-sonli buyrug'i bilan boshlang'ich sinf o'qituvchisi To'rayeva Nilufar o'rtasidagi munosabatlar doimiy ishga o'tkazilganligi ma'lum bo'ldi.

Fuqaro A.Abduleyev O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 7-dekabrda 393-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari" dagi umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori malaka talablariga mos kelganligi tufayli "Umumta'lim muassasalari

tashkil etildi. Ammo maqolada aytilishicha, 117-qarorning 17-bandida "Toshkent shahar hokimligi O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda Markazni Toshkent shahrida bo'sh turgan va foydalanilmayotgan binoga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirsin" deb belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, bu masala hamon yechimini topmay kelmoqda ekan.

Bizga emas, Markazga bino kerak!

Endi kelgan javoblar bilan tanishamiz.

tartibda tegishli hujjatlarni taqdim etganingizdan so'ng o'rnatilgan tartibda ijara shartnomasi rasmiylashtirilib berilishini, shuningdek ijara to'lovining "nol" stavkasini belgilash O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlariga muvofiq amalga oshirilishini ma'lum qiladi".

Javob xati bizni taajjubga soldi. Avvalo, Vazirlar Mahkamasi qarorida Toshkent shahar hokimligi zimmasiga Markazni bo'sh turgan va foydalanilmayotgan binoga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirish vazifasi qo'yilgan. Maqolada aynan shu tekin joy hamon ajratilmayotgani ustida gap ketgan. Javob xatida esa ijaraga joy olish tartib-qoidasi

da"gi 117-son qarorining 5-bandiga muvofiq Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi va uning hududiy bo'linmalarida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari xodimlari pulli shartnoma asosida o'qitilishi hamda aholi uchun o'zbek tilida yozma va nutq madaniyatini shakllantirish bo'yicha tashkil etiladigan bepul o'quv kurslari xarajatlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilangan.

qachon uyg'onasiz, mutasaddilar?

direktori lavozimiga nomzodlarni tavsiya etish va ish beryuvchining tashabbusiga ko'ra lavozimidan ozod etish yuzasidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga taklif kiritish tartibi to'g'risidagi Nizom" ga asosan Denov tumanidagi 75-sonli umumta'lim maktabi direktori lavozimiga tayinlangan.

Maktabda muhit buzilmagan, A.Abduleyev direktor bo'lganidan buyon tartib-intizom yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhbozlik yo'q, o'qituvchi va o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaragan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 19-fevraldagi 74-k-sonli buyrug'i bilan Denov tumani Xalq ta'limi bo'limi mudiri Axrorov Erkin Abdulkaxorovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasi tomonlarning kelishuviga ko'ra bekor qilinishini ma'lum qilamiz".

"Bizda malaka oshirish istagini bildirganlar yo'q" mazmunidagi xatlar Markazga rus tilida kelmoqda"

Joriy yilning 10-mart kuni 10-sonda chop etilgan ushbu maqola yuzasidan uchta tashkilotga xat yo'llangan. Ammo 25-mart kuni yuborilgan murojaatga hozirgacha Toshkent shahar hokimligi o'rni Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent shahar hududiy boshqarmasidan hamda Moliya vazirligi tomonidan javob xati keldi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga yo'llangan murojaatimiz esa 2 oydan oshdiki, hamon javobsiz qolmoqda.

Yodingizda bo'lsa, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO"TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi direktori Inomjon Azimov muallifligidagi mazkur maqolada Markazning tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad va qilinayotgan ishlar bayon qilinishi barobarida muammolar ham aytilgan. 2019-yil 21-oktabrda imzolangan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonida belgilangan vazifalarga muvofiq Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 3-martdagi 117-qarori bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda 13 ta viloyatda uning hududiy bo'linmalari

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi javobi:

"Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi, Toshkent shahar hokimligining 2021-yil 6-apreldagi 3137-sonli topshirig'iga asosan Sizing 2021-yil 25-martdagi 75-sonli murojaatingizni o'rganib chiqib, quyidagilarni ma'lum qiladi.

Murojaatda Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 3-martdagi 117-sonli qarorining 17-bandida ko'rsatilgan tartibda Toshkent shahar hokimligi O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda Markazni Toshkent shahrida bo'sh turgan va foydalanilmayotgan(?) tekin foydalanish huquqi asosida olishda amaliy yordam so'ralgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyuldagi "Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4771-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzurida bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi tashkil etilgan.

Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi, Vazirlar Mahkamasi 2009-yil 8-apreldagi "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 102-sonli qaroriga muvofiq davlat mulkini ijaraga berish masalalarini vakolati doirasida ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi "Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5666-sonli qaroriga asosan 2019-yil 1-iyuldan boshlab davlat ko'chmas mulk obyektlarini ijaraqa berish bo'yicha savdolar "E-IJRO AUKSION" elektron savdo maydonchasi orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "E-IJRO AUKSION" sayti orqali Toshkent shahrida joylashgan bo'sh turgan davlat mulk obyektlari to'g'risida birlamchi ma'lumotlar bilan tanishishingizni, Boshqarmaga o'rnatilgan

Official notice from the Agency for Management of Empty Facilities under the State Assets Management Agency of the Republic of Uzbekistan. Includes a logo and header information.

Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi, Toshkent shahar hokimligining 2021-yil 6-apreldagi 3137-sonli topshirig'iga asosan Sizing 2021-yil 25-martdagi 75-sonli murojaatingizni o'rganib chiqib, quyidagilarni ma'lum qiladi. Murojaatda Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 3-martdagi 117-sonli qarorining 17-bandida ko'rsatilgan tartibda Toshkent shahar hokimligi O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda Markazni Toshkent shahrida bo'sh turgan va foydalanilmayotgan(?) tekin foydalanish huquqi asosida olishda amaliy yordam so'ralgan.

tushuntirilgan. Xatda to'g'ridan-to'g'ri gazeta tahririyati uchun ijaraqa bino olish haqida ko'rsatma berilgani ham taajjubli, kulguli va achinarli holat. Yoki bu xat Markaz uchun tayyorlangan-u, e'tiborsizlik tufayli bizga yuborilgan. Asosiysi — bizga bino kerak emas. Bino Markazga kerak!

Shuningdek, Inomjon Azimov maqolada ta'kidlashicha, Markaz ustavi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan davlat muassasasi sifatida tasdiqlanib, davlat xizmatlari ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishiga qaramay Moliya vazirligi mutaxassislari tomonidan "qarorda aniq yozilmagan" degan vaj-korsnalar oqibatida budgetdan moliyalashtirilmaydigan, o'z mablag'lari hisobiga faoliyat ko'rsatadigan tashkilotga aylandi. O'quv kurslarini tamomlagan tinglovchilar shartnoma mablag'larining vaqtida to'lanmasligi, ba'zi tashkilotlarning turli bahonalalar bilan to'lashdan bosh tortishi oqibatida Markaz xodimlariga oylik maoshlari o'z vaqtida to'lanishida muammolar kelib chiqmoqda.

Ushbu muammo yuzasidan murojaatga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining javobi shunday bo'ldi:

"Moliya vazirligi, Sizing 2021-yil 25-martdagi gazetaning 2021-yil 10-mart sonida chop etilgan maqola yuzasidan munosabat bildirish to'g'risida so'rab yo'llagan 70-sonli xatingizni ko'rib chiqib, quyidagilarni ma'lum qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 3-martdagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi-

Mazkur qarorining 7-bandiga muvofiq Markazni moliyalashtirish manbalari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, Markaz Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi to'g'risidagi nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan davlat ilmiy-texnika dasturlarini amalga oshirish doirasida Innovation rivojlanish vazirligi tomonidan tanlov asosida o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarida ishtirok etishi mumkin.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 28-sentabrda 529-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan to'lov asosida amalga oshirilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 5-moddasiga asosan budget mablag'lari oluvchini Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg'armalari budgetlari mablag'lari hisobidan moliyalashtirish shartlari budget to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan belgilangan.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, maqola muallifining Markazni "budgetdan moliyalashtirish" to'g'risidagi fikri me'yoriy-huquqiy asosga ega emas deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, Markazning moliyaviy faoliyatini yo'lga qo'yishda yuzaga kelayotgan muammolar yuzasidan asoslovchi hisob-kitoblar kiritilgan taqdirda Moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda qisqa muddatlarda ko'rib chiqilishi va tegishli moliyaviy xulosa taqdim etilishi ta'minlanishini bildiriramiz".

"Jannat ichidagi do'zax"

O'zbekitonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Vahob Rahmonning "Jannat ichidagi do'zax" sarlavhali maqolasida Alisher Navoiyning "To'la asarlar to'plami"ni tayyorlashda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarga to'xtalangan. Shuningdek, muallifning 2020-yil 28-avgustda "Billur ko'zgul toptalgan nashr" nomli maqollari ham chop etilgan edi. Ushbu maqolada esa Alisher Navoiy "To'la asarlar to'plami" 6-jildidagi xatoliklar keltirilgan.

(Davomi 8-betda.)

# Siz nimaga muxlissiz?



Hormangizlar, aziz muallimlar! O'quv yilini tugatib oldingiz. Endi ana kelar, mana kelar, deb ta'til pulini kutib yotibsizmi? Mollarga yem olish kerak, tovuqlarning katagi bir ahvol, o'g'ilni uylantirish, qizlarni uzatish... uying tomini tuzatish kerak — do'konchining qarzi daftaridan

orts. O'ldimi, egingizdagi 20 yillik qadrdon ko'ylagingiz yana bir-ikki yilga chidab berar. O'zimizdan so'rasangiz, eshagimiz eski bo'lsa ham to'qimi YANGI. Tiqir-tiqir kunimizni ko'rib yuribmiz.

Shu kunlarda ko'zi ko'karib enas-nikiga qaytib kelgan kelinar siz tomonlarda ham ko'payib qolgandir. Hayron bo'lmang, Saudiya Arabistoni — O'zbekiston — 3:0. "Gurunglashgani boshqa mavzu qurib qoldimi, yig'ishtir karam sho'rvangni", deysizmi? O'zi futbolning menga qizig'i yo'q. Har zamonda tomosha qilsam ham qaysi jamoaning formasi chiroyli bo'lsa, shunga muxlislik qilib ketaveraman. "Sho'ringurg'ur termamiz bu gal ham Jahon chempionatiga chiqolmadi, kel, shular hech bo'lmasa "Shapaloq"ga chiqsin, hama ko'ngli ko'tariladi", deb o'lganimizning kunidan yozayotgan joyimiz. Ustiga-ustak jiddiroq mavzularni olishga ham hayqiq qoldi odam. Birortasi kela solib qalamimni g'ajishga tushsa nima qilaman? Kattakonlarning oltin ruchkasiday bo'lmasa ham o'zimga qadrl. Yonib ketgan bozorni yoritishga borgan bir muxbirning kamerasidagi "fleshka"ni chaynamay yutib yuborganlaridan xabaringiz yo'qdir. Davlatning tog'day mulkini hazm qilishga o'rganib qolgan oshqozonga jimitdekkin qalam nima bo'пти? Shuning uchun, avvalambor, hurmatli Vadim Abramov va o'yinchilarning urug'-aymog'idan uzr so'ragan holda futbol haqida gurunglashaveramiz. Tinch — shu.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlu islohotlar, yangilanishlarga har kim o'z holicha hissa qo'shmoqda. Amaldorlar kecha olgan moshinini, kambag'allar qozoni eski bo'lsa-da qoshig'ini

o'zgartiryapti. Qo'y-qo'y demasangiz 90 dan oshgan chollar ham kampirni yangilayman, deb turganda termamizda biror yangilik bo'lmasa uyat. O'yinlarda jamoamizning mag'lub bo'lishi yangilik emas. Shuning uchun biror o'zgarchoq yo'l topish kerak edi. O'ylab-o'yilab oxiri saralashga ketishdan oldin, futbolkasini yangiladi. Hokimlarimiz g'isht terganini, temir daftardagilarga yordam berganini reklama qilganiday, yangi liboslarini ko'z-ko'z qilishdi. Afsuski, kiyishga ham ulgurmay, burni oqib yarim yo'ldan qaytib keldi.

Tarkib-u uslubdagi yangilanishlarni aytmasa ham bo'ladi. Hujum ortida o'ynashi kerak bo'lganlar himoyada, himoyachilar bir-birini tanimaydi... Bu nafaqat termamizning, balki butun jami-

yatimining asosiy "taktika"siga aylangan. Yaqinda qaysidir tumandagi XTBga harbiy odamni rahbar qilib qo'yishdi. Konchilikka o'qigan biri qishlog'ingga kelib kartoshka ekishni o'rgatsa, traktorchilar dorixonada oq xalat kiyib o'tiribdi. Femidaning tarzisi o'g'rilar qo'lida, kambag'alning turshagini suvtekinga olib, bozorda otasining narxiga sotish insofsizlik emas — "biznes". Xullas, bizda chumchuqni qassob so'ymaydi.

Qaysi jamoalar o'ynayotganini bilmay, maydonga tasodifan kirib qolgan tomoshabin ham darrov biznikilarni tanib oladi. Darvozabon hamma uchun, hamma o'z-o'zi uchun. Yangi kelgan amaldor qo'lga tushgunicha yetti avlodiga yetadigan soqqani qilib, so'ng bamaylixotir panjara ortiga ketgani kabi ular ham faqat o'zi gol urishga intiladi, birovg'a qayishish yo'q. Hech vaqoni qoyillatmagach, boshqasiga almashtiriladi, boshqasi esa bunisidan battar.

Namangandagi "mehmon keldi"ga qurilgan issiqxonalar, yana bizga nomal'mum nimarsalarga sarflanayotgan davlatning bo'ynidagi milliardlab qarzi futbolchilarning oyog'iga osilganday, go'yo. Sudralgani-sudralgan.

Menimcha, ular o'yindan ham

ko'ra mag'lub bo'lganda yer changalab yig'lashga ko'proq tayyorlansa kerak. Bunday ijro bilan "Oskar"ga topshirsa, yilning "Eng yaxshi aktyori" nominatsiyasida tayin g'olib bo'lardi. He-e... Mayli, asabni asraylik.

Yaqinda "Paxtakor"dagi futbolchilarning yillik daromadi e'lon qilindi. "Paxtakorlar" azaldan yomon yashamagani mal'mum. Ammo jamoa safida to'p surayotganlarning milliarder ekanidan bexabar edik. Umuman maydonga tushmagan o'yinchisi ham maktabga qatnayverib botinkasi yirtilgan o'qituvchidan 10 barobar ko'p oylik olar ekan. Yana biz "Saviyasiz o'qituvchilarga ko'p pul to'layapmiz", deb dunyoni buzib yuribmiz.

O'zi shu termamizni Xudo yorlaqab Jahon chempionatiga chiqqanida ham dunyo o'zgarib ketmaydi. Yoz o'tadi, kuz keladi. Narxlar oshaveradi. Poraxor amaldorlar xalqning pulini o'marib qasrlar quradi, moshinlar oladi, ortganini yarim yalang'och raqqosalarga qistirib o'yin tushaveradi. O'qituvchining oyli-gi oshib ketmaydi, ziyolilar tilini tishlab turaveradi, qo'ylar o'z haqini talab qilib hokimlik binolari oldida ma'rayveradi. Tong otadi, kun botadi. Futbolchimizning tepgan to'pi, Ilon Maskning raketasidan oldin yetib bormaydi Marsga. Millionlab yurtdoshlarimiz Rossiyaga ishlagani ketaveradi. Ammo muxlislik baribir muxlislik-da.

"Kimgadir yoqar lola, kim atirgul shaydosi", deganlaridek, dunyoda nimagadir muxlis bo'lmagan odam topilmasa kerak. Kimdir xo'roz urushirishga qiziqadi, kimdir qo'shiqqa, yana kimdir she'rga. Qarsakning, yolg'onning, maqto'vning ishqibozlari-da oz emas. Qovun tushirishga fanat bo'lgan kattakonlarning sanog'iga yetib bo'lmaydi. Yozganimiz bilan hech narsa o'zgarasligini bilsa-da "Shapaloq"imizga muxlis bo'lganlar ham bordir orangizda, biz esa atrofimizda bo'layotgan masxarabozliklarning ustidan xandon otib kulishga

ISHQIBOZ



## Jamiyatni o'zgartirish uchun o'zimizni o'zgartiraylik!

O'zMTDP viloyat kengashi tomonidan o'tkazilayotgan "Eng yaxshi oilaviy kutubxona" tanlovining nizomi bilan tanishib chiqqach, unda qatnashishga rozilik bildirdim.

Viloyat bosqichida qatnashish uchun soat 15:00 da viloyat "Ma'naviyat va ma'rifat" markaziga bordim. Tanlov boshlanib ketgan ekan. Mendan keyin ham bir necha ishtirokchilar kelishdi. Shuning uchun, birinchi ishtirokchining so'zlarini eshitadim. U go'yo hakamlar hay'ati a'zolari bilan shunchaki so'zlashib turganga o'xshardi.

Ishtirokchilarning barchasi tanlov shartlarini bajarishdi. Nizomga ko'ra tanlovda kitobxon o'zining bir nafar kitobsevar farzandi ham qatnashishi aytib o'tilgan. Ammo ko'pchilik ishti-

rokchlarning farzandlari qatnashmaydi. Ikkinchi shart esa kutubxona faoliyati bo'yicha tayyorlangan taqdimotni namoyish qilish edi. Ishtirokchilarning chiqishlarini ko'rib, qizim ikkalamiz 1-o'ringa munosib ekanimizni ich-ichimizdan his qilib turar edik. Biroq natija biz kutgandek bo'lmadi.

Shirin shahridan tashrif buyurgan maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyachisi oliy o'ringa loyiq topilgach, davrada o'tirganlar e'tiroz bildirishdi. Lekin g'isht qolipdan ko'chib bo'lgandi. Men hakamlar qilgan

kutubxona xodimining yoniga borib nohaqlik bo'lganini aytdim.

— Opa, farzandingiz ishtirok etganida 1-o'rin sizniki edi, — dedi uyalmasdan.

— Kechirasiz, singlim, mening qizim bilan savol-javob qilganingizni nahot eslay olmay-siz, — dedim asabiylashib.

— Siz kutubxonangiz tarixi haqida ma'lumot bermadingiz, — dedi ko'zini olib qochib viloyat kengashi raisi yordamchisi Nargiza.

(Ammo tanlov shartlarida kutubxona tarixi haqida ma'lumot berish yo'qligini Nargiza yaxshi bilardi. Hakamlar hay'atining "savodxon" ekanligini isbotlash uchun jo'rtaga shu gapni aytgani uning avzoyidan ko'rinib turardi).

Uyga kelgach qizim:

— Ayajon, bunday nohaqlik bilan o'tkazilayotgan tanlovlardan kimga foyda? Nega kerak shuncha ovoragarchilik? Nega haqsizlikni ko'rib indamingiz? Sizning o'ringizda bo'lganida arzimagan tanlov uchun vaqtimni ketkazmas edim. Tanish-bilishchilik ham korruptsiyaning bir ko'rinishi emasmi? — dedi afsuslanib.

Qizimning so'zlaridan keyin o'ylanib qoldim. Nahot biz, kattalar, yosh avlodning ko'z o'ngida nohaqliklarni chiroyli ko'rinishlarda namoyish etayotganimizni sezmayotgan bo'lsak?

Bundan uch yil oldin ham "Eng yaxshi kitobxon oila" tanloviga ancha tayyorgarlik ko'rgan edik. Ammo tanlovning viloyat bosqichi haqida xabarsiz

qoldik. "Eng yaxshi kitobxon ayol" tanloviga ham bir necha oy tayyorgarlik ko'rdim. Surish-tirsam, tanlov bekor qilindi. Balki, bu ham bir bahonadir.

Bu tanlovlarning "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tomonidan tashkil etilayotgani quvonarli hol, biroq ko'r-ko'rona o'tkazilayotgan "tanlovlar" partiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadini puchga chiqarayotganini nahotki mas'ul xodimlar anglab yetmayotgan bo'lsa?!

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining "Inson o'zgarasa, jamiyat o'zgaradi", degan shiori menga juda yoqardi. Savol tug'iladi: Siz insonlarning qaysi tomondan o'zgarishini xohlaysiz? Yoki insonlarni qanday o'zgartirishga harakat qilyapsiz?

Hurmatli viloyat partiya kengashi a'zolari, nazarimda, o'zingizni o'zgartirishga vaqt kelmadimikan?

Dilfuza G'AZNAYEVA,  
Sirdaryo tumanidagi  
5-maktab o'qituvchisi

## Hamkorlik

## IKKI TILDA SO'ZLASHUVCHI YAKDIL XALQ

O'zbek va tojik xalqlarini **bir daraxtning** ikki shoxi, **bir daryoning** ikki irmog'iga qiyoslashadi. Ikki xalqning muqaddas din-u e'tiqodi, yer-u suvi, qadriyatlar, an'analari, fe'li, tabiati bir. Demakki, ularning tashvish-u shodliklari, sinov-u yutuqlari ham birdir. Bunday madaniyati, urf-odat va an'analari bir-biriga o'xshash ikki xalqni dunyo etnografik xaritasida topish oson emas.

Yagona tarixiy va sivilizatsion makonda istiqomat qiladigan ikki birodar davlat tarixiga so'nggi 5 yil davomida yangi nafas kirib keldi. Muhtaram yurt-boshimiz Sh.Mirziyoyev rahbarligining ilk kunlaridan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, birodar Tojikiston bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish O'zbekiston **tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan** biriga aylandi.

Muhimi, so'nggi yillarda ikki tomonlama munosabatlarimizda har bir yo'nalishda mutlaqo yangi ijobiy dinamika hosil bo'ldi. Jumladan, islohotlarimiz boshida, ya'ni, 2017-yilda tovar ayirboshlash **70 million** dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda, og'ir pandemiya sharoitiga qaramay, ushbu ko'rsatkich ilk bor **500 million** dollarga yetdi.

Tojikistonda o'zbek kapitali, O'zbekistonda esa tojik kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar soni **8** barobarga ko'payib, bugungi kunda **200** dan oshdi.

Ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. Masalan, Surxondaryo viloyati bilan Xatlon viloyati, Samarqand viloyati bilan So'g'd viloyati o'rtasidagi yaqin birodarlik aloqalari bunga yaqqol misol. Viloyatlararo biznes-forum va ko'rgazmalar o'tkazilib, unda ikki tomon ishbilanmonlari raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zlarning innovatsion loyihalarini bir-birlari bilan o'rtoqlashmoqda.

Ayniqsa, bu yil — o'zgacha yil. 2021-yilda mustaqil O'zbekiston va mustaqil Tojikiston davlatlari o'rtasida **diplomatik munosabatlarning** o'rnatilganiga **30 yil** to'ldi.

Ushbu tarixiy yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasiga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki mamlakat munosabatlarining yangi modelini yaratdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatlarimiz yetakchilari o'rtasidagi do'stona hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarimizdagi "muzlar"ning erishiga sabab bo'ldi. Shubhasiz, ayni paytda bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar **"strategik sheriklik"** maqomiga ko'tarilgan. Yetakchilarimizning

tashrifi bo'lib, u ikki tomonlama munosabatlarimizni sifat jihatidan "agreyd" qilishga xizmat qildi.

Tashrif davomida davlatimiz rahbari, avvalambor, o'zaro savdo aylanmalarimiz mamlakatlarimiz salohiyatiga mos emasligi, kelgusi yilda uni ikki barobarga ko'paytirib, **1 milliard** dollarga yetkazish uchun yangi **"o'sish nuqtalari"**ni topish muhim ekanini ta'kidledi.

Shu maqsadda Prezidentimiz ikki mamlakat o'rtasidagi erkin savdo rejimidan istisnolarni bekor qilish va notarif to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Rasmiy tashrif chog'ida, shuningdek, savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, transport sohasida hududlar o'rtasidagi sheriklikni rivojlantirish, energetika yo'nalishidagi ulkan salohiyatni samarali ishga solish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'z navbatida, parlamentlararo



diplomatiya, madaniy-gumanitar almashinuv, barqarorlik va xavfsizlikka nisbatan umumiy tahdid va xatarlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalariga to'xtalib o'tildi.

Rasmiy Toshkent va Dushanbe BMT, MDH, SHHT, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi kabi xalqaro va mintaqaviy platforma-

katta hissasi borligini alohida ta'kidledi.

Ikki xalqning mushtarak **madaniyatlarini** ikki tomonlama munosabatlarida o'ziga xos **simfoniya** rolini bajaradi, desak to'g'ri bo'ladi. O'zbek xalqining boy va serqirra madaniy merosini tojiklar yuksak e'zozlashadi. O'z navbatida, o'zbeklar ham chuqur tarixiy ildizlarga ega tojik madaniyati durdonalarini qadrlaydi.

Xalqlarimiz o'rtasidagi rishtalarda aks etgan "ikki tillilik" natijasida she'riyatda o'ziga xos **"shiru shakar"** (ikki tilda yozilgan matn) she'riy janri rivojlanib kelgan.

Ulug' mutafakkir ajdodlarimiz **Alisher Navoiy** va **Abdurahmon**

fuqarolar istiqomat qilib, turli sohalarda mamlakatimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqda.

Hozirda O'zbekistonda **15** ta tojik milliy madaniyat markazi faoliyat yuritadi. Tojik tilida chop etiladigan **4** ta davriy bosma nashr mavjud bo'lib, **5** ta teleko'rsatuv va **30** ta radiodastur tojik tilida muntazam efiga uzatilmoqda. Yurtimizda **255** ta maktabda ta'lim tojik tilida olib boriladi.

O'zbekiston va Tojikiston **oliy ta'lim muassasalari** o'rtasidagi aloqalar ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bugungi kunga kelib, ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida **70** ga yaqin kelishuv va memorandumlar mavjud

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi mintaqaviy integratsiya ikki tomon uchun ham ulkan iqtisodiy afzalliklar beradi. Jahon bankining tadqiqotlariga ko'ra, mintaqaviy integratsiya taraflarga bozor samaradorligini oshirish, yirik infratuzilmaviy loyihalar xarajatlarini teng taqsimlash, global integratsiya uchun poydevor, tinchlik va xavfsizlik kabi noiqtisodiy imtiyozlar yaratish imkoniyatini beradi.

**Jomiy, Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom va Mirzo Tur-sunzoda, Abdulla Oripov va Loyiq Sherali** o'zlarining mumtoz asarlarida

bo'lib, ular ilm-fan sohasidagi hamkorlik, professor o'qituvchilar va talabalar almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish va qo'shma ilmiy-amaliy forumlarni tashkil qilish masalalarini qamrab olgan.

Bu sa'y-harakatlar ikki mamlakat iqtisodiy infratuzilmalariga qo'shma ta'lim dasturlari orqali kadrlar yetishtirib berish uchun muhim o'rin tutadi. Natijada, hozirda O'zbekistonning **30** ta OTMsi Tojikistonning **15** ta universitet va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan konstruktiv hamkorlik qilib kelmoqda.

O'z navbatida, O'zbekiston ham Tojikiston hukumati etnik o'zbek fuqarolariga munosib hayot va ijod sharoitlar yaratish, o'zbek milliy madaniyatining o'ziga xosligini saqlash va rivojlantirish uchun sa'y-harakatlarini yuksak qadrlaydi.

Bugungi kunda Xo'jand shahrida O'zbek ma'naviyati va ma'rifati markazi, mahalliy universitetda o'zbek filologiyasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan ilmiy maktab faoliyat yuritmoqda.

Ishonamizki, bundan keyin ham O'zbekistonda tojikistonlik talabalar, Tojikistonda esa o'zbekistonlik talabalarining soni kundan-kunga oshib boradi. Mintaqadagi ta'lim sohasidagi "xab" deganda biz aynan shunday o'zaro maftunkor ta'lim tizimlarini tushunishimiz lozim.

Ikki mamlakat o'rtasida madaniyat va ta'lim sohasidagi hamkorligimiz yanada rivoj topgan sayin, millatlar ma'nan yanada yuksaladi, qadr topadi, jipslashadi.

Zero, tarixi ham, buguni ham, kelajagi ham yakdil bo'lgan bu ikki millatga xos "shiru shakar" mohiyati hozirgi tahlikali zamonda millatlarimiz va madaniyatimiz uchun o'zgacha ruh bag'ishlashiga ishonamiz.

**Abduqodir TOSHQULOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri

## Ma'lumot uchun:

Xo'jand shahri temuriylar davrida davlatning muhim qo'rg'onlaridan biri bo'lgan. Undan oldin, Xo'jandning shonli farzandi Temur Malik xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi bilan g'animga qarshi yelkama-yelka kurashib, jasorat ko'rsatgani ikki millat xotirasida muhrlanib qolgan.

shaxsiy tashabbus va sa'y-harakatlari tufayli bugun O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya qilish masalalari to'liq hal etildi.

Joriy yilning 10-11-iyun kunlari Sh.Mirziyoyevning Tojikistonga rasmiy tashrifi prezidentlik davridagi to'rtinchi

lar doirasida hamkorlikni davom ettirib, bir-birini izchil tarzda qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini tasdiqladi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ikki birodar davlat o'rtasidagi hamkorlik bugungi kunga kelib, yuksak darajaga ko'tarilishida shaxsan Prezident Shavkat Mirziyoyevning

o'zbek-tojik birodarligini beqiyos mahorat bilan tarannum etgan. **Mirzo Tur-sunzoda** va **Jalol Ikromiyning Sharof Rashidov, G'afur G'ulom va Zulfiyaxonim** bilan yaqin do'st bo'lganini bar-chamiz yaxshi bilamiz.

Shu zotlarning asarlarida o'zbek va tojik siymolari yaxshi kunlarda ham, og'ir, sinovli kunlarda ham doimo birga bo'lgan. O'zbeklarning to'ylarida tojik kuy-qo'shiqlari, tojik birodarlarimiz to'ylarida esa o'zbekcha navolar yangragan. Zero, qo'shiqlarimizning so'zlari ham ohangdoshdir.

Mumtoz musiqamiz sifatida qadrlanadigan "Shashmaqom" tojik tilida "olti maqom" degan ma'noni bildiradi. Shu bilan birga, bu kuy yangraganda, u o'zbek tilida ijro qilinadimi yoki tojik tilidami, buni oldindan aytish mushkul.

Bugun yurtimizda barcha millat va elatlar qatori birodar tojik madaniyatini saqlash va rivojlantirishga **davlat siyosati** miqyosida katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda **1 million 600 ming** nafar tojik millatiga mansub

## Salomatlik sabog'i

## Charchoqni yenguvchi "terapiya"

Sokin bir yerni makon tutsam... Hech kim bezovta qilmasa... Qo'l telefoni, odamlar shovqini, hayot tashvishlaridan butkul yiroq bo'lsam... O'zim bilan o'zim qolsam-u, hech kim va hech narsa haqida o'ylamasam...

Bunday o'y vaqti-vaqti bilan har birimizning xayolimizdan o'tishi tabiiy. Zero, hayotda ba'zan shunday damlar bo'ladi, ko'ngil yolg'izlikni tusaydi. Turli reja-yu tashvishlar, ortga surib bo'lmaydigan ish va yumushlar, kundalik turmush tarzi — bularning bari ruhiyatimizga ta'sir etib, tushuniksiz toliqish hissinu uyg'otadi.

Insondagi bunday holatga tibbiyotda bugun surunkali charchoq sindromining ilk alomatlarini, deya tasnif berilmoqda. Bugungi shiddatkor zamonda muttasil aqliy mehnat bilan shug'ullanish, mazmunli horchiq chiqarishni o'ylamaslik, asabiy toliqishlar ko'p uchrashi tabiiy. Bunday paytda organizm charchoqni deyarli sezmas, oradan biroq vaqt o'tib, kundalik tashvishlardan tin olgachgina u o'z kuchini ko'rsatir ekan. Yana ham aniqrog'i, o'ta tez toliqish, lanjlik, mehnat qobiliyati pasayib ketishi, xotira susayishi, uyqusizlik, barmoqlarning tit-rashi, bosh og'rig'i, yurak bezovtaligi, me'da-ichak faoliyati buzilishi, bo'g'im-lardagi og'riq, sababsiz vahima hissi surunkali charchoq belgilari hisoblanadi. Shifokorlar bunday holatga beparvo munosabatda bo'lish organizmning immun tizimi izdan chiqishi, pirovardida turli xastaliklar avj olishiga sabab bo'lishi-

ni qayd etishmoqda. Shu bois surunkali charchoq sindromining oldini olish uchun sog'lom turmush tarzi qoidalari qat'iy amal qilish zarur.

Eng avvalo, ovqatlanish ratsioniga alohida e'tibor qaratish kerak. Yog'li taomlar o'rni qat'iy sarxil meva va sabzavotlar (ayniqsa, o'rik, qulupnay, baqlajon, bodring, pomidor, limon) hamda ko'katlar miqdorini oshirish, boshqoli o'simliklar va turli yormalardan tayyorlangan taomlar, shuningdek, tovuq, baliq, mol go'shtini ko'proq iste'mol qilish asab hamda yurak qon-tomir tizimi faoliyatini yaxshilashda muhim o'rinni tutadi. Qahva hamda rangli ichimliklardan ko'ra ko'proq sut (issiqligida asal qo'shib ichilsa yanada yaxshi) va qatiq, sharbat, yalpizchoy, do'lana, toshcho'p, arslonquyruq singari o'simliklar damlamasidan ichish tavsiya etiladi. Chunki kundalik charchoqni bartaraf etishda ularning o'rni beqiyos. Bundan tashqari, kechki ovqatlanish uyqudan 3-4 soat avval bo'lishi, tungi uyqu oldidan tashvishli yumushlar haqida umumiy o'ylamaslikka odatlanish kerak.

Shuni unutmaslik lozimki, o'y-xayol, ruhiy holat sog'lig'imizga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omildir. Masalan, inson fe'l-atvoriga



xos bir xususiyat bor. U ham bo'lsa, kimdandir xafa bo'lsak, ranjisak, o'sha odamga ayt olmagin gaplarimiz, fikrlarimiz muayyan bir muddat davomida xayolni band etib turadi. Amaliyotchi ruhshunos Durdona Turg'uliyevaning maslahatlarini misol keltirsak:

— Shahar shovqinidan biroq muddat uzoqlashib, tabiat bag'rida soatlab sayr qilish, uning go'zalliklaridan bahramand bo'lish vujudimizga hayotiy kuch-quvvat bag'ishlaydi. Musaffo tog' havosidan nafas olish, suvda suzish, tuproqda yalangoyuq yurish, maysalar ustiga yon-boshlash, yon-atrof, yam-yashil o'simliklarga uzoq-uzoq tikilib, tabiiy ranglar jilosidan bahramand bo'lish — bularning bari surunkali charchoq alomatlarini bartaraf etishning samarali usulidir. Qolaversa, kundalik hayot tarzimida qo'llash mumkin bo'lgan boshqa qator ruhiy mashqlar ham borki, ular kayfiyatni ko'tarib, tushkunlik va charchoqdan

asraydi. Masalan, "tabassumterapiya"ni o'ylaylik. Hayron bo'lishingiz mumkin: he yo'q, be yo'q, o'zimizdan-o'zimiz jilmayishning nimasi terapiya ekan, deb. Ammo bu tibbiyotda isbotlangan haqiqat. Kulgu va tabassum organizmni yoshartiruvchi quvunch gormoni ko'p miqdorda ishlab chiqarilishiga sabab bo'ladi.

Bu esa kayfiyat ko'tarilishiga olib kelishi, shubhasiz. Hayotda shunday odamlar borki, ular jajji bolakay bilan "suhbatlashib" ham bir olam zavq olib bilishadi, shu on yuz-ko'zlarida go'yo oftob charaqlagandek bo'ladi. Uyda har kuni sevimli musiqangizni huzur qilib tinglab, unga raqs tushsangiz ham endorfin gormoni vujudingizni qamrab oladi va siz xushkayfiyat hamrohligida asta-sekin toliqishdan xalos bo'lasiz. Ba'zan esa depressiv holatdan qutulish uchun tashqi ko'rinishimizni o'zgartirishning o'zi kifoya. Nega deganda, inson chiroyli imijga ega bo'lgach, unda o'ziga nisbatan ishonch ortib, ertangi kunga intilish hissi paydo bo'ladi.

Menimcha, hayotiy ishtiyonni oshiruvchi va toliqish alomatlarini bartaraf etuvchi ruhiy mashg'ulotlar sirasiga ajoyib filmlarni tomosha qilish terapiyasini ham kiritib qo'yish kerak....

Zulfiya NURMETOVA  
tayyorladi.

Uchquduq tumanidagi 18-maktab o'qituvchisi Gulnoza Ergasheva tumanimizning eng tashabbuskor pedagoglaridan. Qariyb 15 yildan buyon kasbiga sadoqat bilan ishlab kelmoqda. 50 ga yaqin o'quvchilarning oliy o'quv yurtida ta'lim olishiga hissa qo'shadi.

## Tadbirkor muallima

Gulfira Avg'onova, Gavhar O'rolova, So'g'diyona Shopo'latova, Shahzoda Tog'aymurodova, Malika Amirova va yana bir qator o'quvchilar respublika fan olimpiadalarida ingliz tili fanidan faxrli o'rinlarni egallab, tumanimiz obro'sini yuksaltirdi, xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritdi.

Uchquduq tumani eng chekka hududlardan biri bo'lib, markazdan olisda ovullar mavjud. Ushbu ovul maktablarida o'qituvchilar kam. Shu bois, har seshanba, payshanba va shanba kunlari malakali o'qituvchilar tomonidan olis ovul maktablari bitiruvchi sinflariga yetarli bilim berib boriladi. Gulnoza opa shu kunlari sahar soat oldida yo'lga chiqib, kamida 50 kilometrqa yaqin yo'l bosib, o'quvchilar tomon shoshadi. Bundan tashqari, o'qituvchimiz tumanimizning Shalxar, Qulquduq, Qoqpatos kabi qozoq ovullarida ham dars beradi.

— "Yoshlik chog'imdan o'zimni boshqa kasbda ko'ra olmaganman, bolalarisiz hayotimni tasavvur qila olmayman, — deydi Gulnoza opa. Bilimini hech kimdan ayamaganligi bois ustozni Uchquduq aholisi iliq so'zlar bilan ta'riflashadi.

Kasbi bilangina cheklanib qolmasdan, tumandagi katta tashkilotlar uchun shartnoma va turli materiallarni ingliz va rus tillaridan o'zbek tiliga tarjima qiladi. Gulnoza opa hatto, shaxsiy biznesini ham yo'lga qo'ygan. Tikuvchilik sohasida bir qator yutuqlarga erishgan. Yaqin orada imtiyozli kredit olib, o'quv markazi va tikuvchilik sexini ochmoqchi. Tinib-tinchimas, har sohada faol ustozlarimiz bor bo'lishsin!

Shahlo TOLLIBOYEVA,  
O'zDJTU talabasi

## Nega virtual olamga sho'ng'ib ketyapmiz?

Uyqudan uyg'onish bilan beixtiyor telefonga qo'l yugurtiramiz. Telefon inson hayotining bir qismiga aylangan. Uni kimdir olib qo'ysa yoki yo'qotib qo'ygudek bo'lsak, nimadir yetishmayotganday asabiylashishni boshlaymiz. Xo'sh, bunga sabab nima?

Uning zararli to'lqinlari miyaga salbiy ta'sir ko'rsatib, ruhimizga singib ulgurdi. Xohlasak, xohlamasak ham shu temir qutiga bog'langanmiz. O'ziga jalb qiladigan xabarlar hammasi shunda. Ammo uning foydasidan zarari ko'proq. Ko'z nuri va xotira pasayishidan tashqari insonni manqurtga aylantirayapti. Abdulhay Abdurahmonovning "Saodatga eltuvchi bilim" kitobida manqurtlik haqida fakt va fikrlar keltirilgan:

"Hozirgi ilm-fan jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan paytda, olimlar tomonidan qator ilmiy kashfiyotlar qatori, insonga ruhiy ta'sir o'tkazadigan ruhiy (psixotron) qurol yaratilgan. Bu qurolning turlari ko'p, lekin ularning amal qilish usuli bitta. U ham bo'lsa inson ongiga, tafakkuriga boshqalar tomonidan ta'sir etuvchi elektromagnit maydonidir...

Psixotron qurolning ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi odamda ruhiy bosqinchilik kayfiyatini tug'diradi, ya'ni kishi ruhiyatiga bevosita ta'sir o'tkazilganda, kishini tajovuzkor qilib qo'yadi. U atrofida voqea-hodisalariga g'azab bilan qaraydigan bo'ladi. Ikkinchisi esa kishi ruhiyatini nazoratga olib, uning ongiga

buyruqlar yuborish orqali istalgan maqsadni amalga oshirishda foydalaniladi. Bu qurol ta'siriga kirgan inson uch bosqichni o'z boshidan kechiradi. Birinchi bosqichda kishi tomonidan faqat axborot qabul qilinadi-yu, buyruqlarni beixtiyor, ko'r-ko'rona bajaraveradi. Ko'pincha birinchi bosqichda bunday kishilar manqurtga (zombiga) aylanib qolganlarini o'zlari sezmay yuraverishadi. Ular uzoq masofadan ham boshqarilaveradi. Manqurtlashishning ikkinchi bosqichiga kelib, inson belgilangan dastur bo'yicha ish bajaradigan temirtan robotga aylanib qoladi, fikrlash qobiliyatini yo'qotadi, ixtiyori butkul o'zidan ketadi va u istalgan buyruqni o'ylab o'tirmay bajaraveradigan bo'ladi. So'nggi bosqichda u ishga yaroqsizligi tufayli o'zini-o'zi o'ldirish payiga tushadi. Aniqlik, u endi kerak bo'lmay qolganda psixotron qurol yordamida uning ongiga bu haqda buyruq beriladi".

Bunday ta'sirga tushmaslikka harakat qilaylik. Olamga, odamga va o'zingizga temir qutichadanmas, o'z ko'zlaringiz bilan boqing!

Shohsanamjon SAIDOVA,  
O'zDJTU talabasi

Mushtariy muhokamasi

# "Maktab bedarvoza emas"

Ijtimoiy tarmoqlarda shov-shuvli xabarlar orasida "O'qituvchi kaltaklandi" sarlavhali ommani sergaklantiradi, o'ylantiradi, qayg'uga soladi. Achinarlisi, oxirgi paytlar shu mazmundagi xabarlar ko'paydi. Sabablari juda oddiy: o'quvchi imtihonga kech kelgani, formada emasligi, past baho olgani va hokazo. Nahotki, o'qituvchi bolani tartibga chaqirgani, to'g'ri yo'lga boshlagani uchun jazolansa, zo'ravonlikka uchrasa? Ustozlarni sharaflif kasb egalari, deya e'zozlash, maqomini oshirish bo'yicha harakat qilinayotgan paytda ularga nisbatan bunday adolatsizlik va shafqatsizlik, avvalo, insoniylikka zid.

**Nargiza BEKNAZAROVA, Olot tumanidagi 24-maktabning tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi:**

— Qashqadaryoda o'qituvchini baho uchun kaltaklashibdi. Bir tarafdin o'ylab qoldim, nahotki hozir bahoga qiziqadigan o'quvchi bo'lsa, kengroq o'ylab qarasma bu baho o'quvchiga emas, mushumzo'r akaxonlariga kerak bo'пти. Musht bilan olingan baho nimani o'zgartiradi? O'qituvchilarning oylik maoshini emas, hurmatini oshirish kerak. Toki o'qituvchiga qarshi qilingan har qanday harakat uchun qonunan javob berilsin. Bunda, avvalo, ota-onalarni tarbiyalash yoki tartibga chaqirish kerak. Bola-ga turli fikrlarni, asosan ota-onaga singdiradi. Oddiy misol: sinf ta'miri uchun o'qituvchini behurmat qiladigan, sha'nini bulg'aydigan, 1 yillik mehnatini yil oxirida 1 kunda yer yutganday qila oladiganlar bor. Mana shunday ota-onalar bolasining imtihoni-yu boshqa muhim jarayonlarga qiziqarmidi? Aslida, bunday vaziyatda eng ko'p mas'uliyat ota-ona zimmasida bo'lishi kerak edi.

**Shoira BOZOROVA, Romitan tumanidagi 1-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi:**

— Aybdorlar ma'muriy jazo bilan qutulmasin, jinoiy javobgarlikka tortilsin. Va bu boshqalarga o'rnak bo'lsin. Toki bunday holatlar takrorlanmasin. Hozirdan oldi olinmasa, ushbu illat tuzalmas yaraga aylanishi aniq. O'qituvchi himoyasiz qolishi kerak emas. Ular ham o'z haq-huquqini bilib, o'zini himoya qilishni o'rganishi kerak. Qachongacha andisha qilamiz? Maktabda o'qituvchi huquqini himoya qiladigan yurist faoliyat yuritisa, ularni obro'sizlantirish va boshqa holatlarga chek qo'yilardi. Nohaq ayblovlarining oldi olinib, o'qituvchi obro'si ishonchli himoya qilinardi.

**Norchuchuk NORMURODOVA, Shahrisabz shahridagi 16-maktabning matematika fani o'qituvchisi:**

— Rahbarlar, mahalla yoki maktablarga biriktirilgan IIB xodimlari noxush vaziyatlar yuz bergach harakatga tushadi. Afsuski, bizda muammo yuzaga kelmaguncha oldini olish ha-

qida o'ylanmaydi. Mana shuning uchun o'qituvchilar bilan bog'liq ko'ngilsizliklar yuzaga keldi. Kim aybdor? Ko'cha-ko'ydan yoki ijtimoiy tarmoqlardan andoza olayotgan o'quvchilarni yoki farzandlari tarbiyasiga bee'tibor ota-onalar? Yoki biz o'qituvchilar me'yordan ortiq talabchanlik qilyapmizmi? Maktab, mahalla va oila hamkorligi qachon qog'ozlardan amalga ko'chadi? Maktabdan keyingi vaqtda o'quvchi uchun javobgarlik o'qituvchidan olib tashlandi, lekin... Amalda esa direktor o'rinbosarlari sinf rahbaridan yozgi ta'til davridagi holatlar uchun ota-onalardan kafolat xati yozdirib olishni talab etmoqda. O'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga mas'ul shaxslar o'z vazifasini vijdonan bajarsa, ortiqcha muammolarga duch kelmay ishlaymiz.

**Ma'murxon ESHCHANOVA, Xiva shahridagi 17-IDUM o'qituvchisi:**

— Yaqinda 9-sinfda "Asrga tatigulik kun" romani haqida maroq bilan dars o'tayotsam, sinfga shiddat bilan ikki ayol (ona va buvi) ruxsat so'ramasdan kirib, birinchi partada o'tiradigan qizga qarab o'shqira ketdi. Bilsam, oldingi soatda ikkala sinfdosh qiz arzimasa narsa ustida aytishib qolgan, biri darhol onasiga xabar yozib, janjalni kattalashtirgan. Direktor, o'rinbosarlar, ayrim erkak o'qituvchilar ularni zo'rg'a tinchlantirdi. O'sha kun hamma uchun og'ir o'tdi. Ertalab Edigey Bo'ronning mehnatkashligi haqida maza qilib suhbatlashaman, deya ajoyib tuyg'ular bilan ishga otlangandim. Afsuski, darsimning beliga tepishdi. Rahmatli buvim qirq yil matematikadan dars bergan. U kishining darsiga ota-onalar tugul, maktab ma'muriyati, hatto tuman XTBdan kelganlar ham ruxsatsiz kira olmas ekan. U paytlar o'qituvchiga hurmat-izzat boshqacha bo'lganmi, yoki o'zlari qattiqqo'l bo'lganmi...

Banklarning eshigi oldida posbonlar turadi. Kimligingiz va nega kelganingizni bilib, keyin kiritishadi. Chunki u yerda davlat mulki, xalq omonatlari saqlanadi-da. Maktablarda ham xalq bolalari, ularga bilim berayotgan ustozlar bor. Ularning xavfsizligi hammasidan-da muhim bo'lishi kerak, aslida. Maktablarda posbonlik shittini joriy qilish shart. Bu maktab ichki qonun-qoidasini yaxshilashda muhim. Maktab bedarvoza emas!

**Karimjon ERGASHEV, Pop tumanidagi 17-maktab o'qituvchisi:**

— Maktab o'quvchisining ota-onasi o'zboshimchaligi, o'qituvchiga hurmatsizligi uchun jazolansin, degan joyi yo'q. Ammo arzimagan ma'suliyatsizligi uchun o'qituvchiga jazo muqarrar. O'quvchiga ta'lim-tarbiya berishga ustoz majbur, ammo unga tanbeh berishga, hayotiy misollar keltirib sha'niga sal bo'lsa-da tegib ketsa, o'qituvchini bemalol do'pposlash mumkin. 24 yil davomida biror marotaba prokuraturaning ustozlarni qo'llaganini ko'r-madim. Ko'chada, uyida biror bolaga bir narsa bo'lsa, xuddi ustozlar aybdordek papkasini ko'tarib maktabga keladi. Direktor, direktor o'rinbosari, sinf rahbari balogardon. Maktabdan tashqarida bo'lgan, desang, maosh o'lyapsanmi, xabardor bo'lishing shart, deydi, xuddi o'zi davlatdan maosh olmayotganday. Xullas, tepada manqurlar haliyam bor ekan, yuqori ta'lim saviyasi va izzat-hurmat haqida xayol surmasak ham bo'ladi.

**Gulchehra ASHUROVA, Termiz shahridagi 13-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari:**

— Har bir sohaning mas'ullari bor. Ichki ishlar xodimiga pora taklif qilishsa, u rad etgani uchun rag'batlantirildi. Korrupsiyaga qarshi kurash deya ommaga ko'rsatildi. Xalq ta'limi tizimida-chi? O'qituvchilarga nisbatan zo'ravonlik, kaltaklash va boshqalar kuzatilganda ham mas'ullar pinak buzmaydi, munosabat bildirmaydi. O'qituvchilar assotsiatsiyasi-chi? Ular nega befarq? Axir bu tashkilotning maqsadi xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash emasmi? O'qituvchiga bunday munosabat bo'layotgan jamiyatda bola shaxsining rivojlanishi, tarbiyasi, kamoloti haqida qanday gap bo'lishi mumkin? O'qituvchi ish haqini oshirishga vaqt kerak, deyildi. O'qituvchi mavqeyiga-chi? Unga ham vaqt zarurmi? Nega ayrim maktablar ostanasini beqard, beizzati bo'lib bormoqda? Ushbu salbiy holatlarga mas'ullar jiddiy munosabat bildirib, pedagogni himoya qilishi kerakmasmi? O'qituvchilarga qo'l ko'tarish — jinoyat, jaholat. Nega tashkilar darajamiz shu qadar pasaydi? Bunday illat bizning bolalarga qayerdan singdi? Axir bu yoshlar ko'z o'ngida o'qituvchi sha'ni, qadr-qimmatini toptash-ku! O'qituvchisi kaltaklanayotgan jamiyatda yuksak salohiyatli, tengsiz tafakkurli ajdodlarimizga munosib izdoshlar shakllanishini kutish nojoiz.

**Erkinjon YARASHEV, Zarafshon shahridagi 13-IDUM o'qituvchisi:**

— Oxirgi yillarda o'qituvchilarni majburiy mehnatdan ozod qildik, degan gapni juda ko'p marta eshitdik. E, rahmat. Qoyil-e! Qahramonlik bu! Aslida, bo'yimizdagi ortiqcha ishni olib tashlashdi(garchi bizning vakola-

timizga kirmasa-da). Endi shuni 4-5 yil takrorlashdan nima foyda? O'qituvchiga, maktabga kelib, to'da bo'lib, jamoasi, o'quvchilarning oldida qo'l ko'tariyaptimi, bu yaxshilikka olib kelmaydi. To'g'ri, o'qituvchining maqomini oshirish uchun uni davlat xodimi darajasiga ko'tarish, daxlsizligini ta'minlash va yana bir qancha takliflar berildi. Kerak bo'lsa, yana beramiz. Lekin amaliy ishga o'tilmas ekan, bunday ko'rsatuvlardan, tok-shoulardan hech qanday naf yo'q. Berilgan takliflarga qarshi chiqqanlar ham bo'ldi. Buning uchun davlatning qancha puli ketarkan? Muhim bo'lmagan chora-tadbirlar uchun ham qancha pul sarflanmoqda. Ta'lim uchun ketsa, vaqti kelib 10-15 barobar foyda olib keladi.

**Komiljon HASANOV, Guliston tumanidagi 13-maktabning tarix fani o'qituvchisi:**

— Yaqinda imtihonda 10-sinfdan 3 nafariga 2 baho qo'yib ikkinchi turga qoldirdim. Qizig'i, faqat men shunga jur'at etibman. O'quvchilarda baribir bahomizni qo'yib beradi, degan tushuncha bor. Aslini olganda, ularga imtihondan oldin qanday yordam kerak bo'lsa, bergandim. Danga-salik, bepisandlik, layoqatsizlik oqibatida shunday holat yuzaga keldi. Bir o'quvchim "Ustoz, kimnidir 2 baho qo'yib sinfdan qoldirsangiz, mutaxassis sifatida obro'yingizga ziyon emasmi?", deb so'radi. Mana, muammo qayerda? Bu bilan obro'siz bo'lmaman, dedim. Hududlardagi ahvolni surishtirsam, ko'p o'quvchilar faqat tarix fanidan keyingi turga qolibdi. Demak, bu o'quvchilar boshqa fanlarni yaxshi o'zlashtirgan ekan-da, deb o'ylab qolasan kishi. Aslida, tarixni o'qimagan bola boshqasini ham o'qimaydi. O'qituvchilarning o'zini ortiqcha boshog'riqlarga qo'yishni xohlamaydi. Masala yana oydinlashmoqda. O'qituvchilarda jur'atsizlik, ortiqcha muammolardan qochish kuzatiladi. Bu ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Kaltaklanish, kamsitilish kabilar ham muallimlarni cho'chitadi. Shuning uchun ta'limga har bir muammo, eng mayda unsur ham e'tibordan chetda qolishi kerak emas.

**Barno TURSUNOVA, Buloqboshi tumanidagi 18-maktabning nemis tili fani o'qituvchisi:**

— Bechora o'qituvchi bolaga bor bilimni berib, asablari qaqshab uni o'qitsa-yu, hatto 3 baho qo'yishga yoki "jim o'tir", deyishga haqli bo'lmasa?! Sal qattiq gapirib qo'ysa hurmati, yoshi — hammasi unutilib kaltaklansa. Jamiyatimiz, rahbarlarimiz qayerga qarayapti? Nega biz Singapur bo'lolmaymiz, o'qituvchiga vazir darajasida hurmat qilinadigan Yaponiya bo'lolmaymiz, vaholanki, ulardan buyuk tariximiz, buyuk ajdodlarimiz bor. O'qituvchi maqomi, mavqeyiga e'tibor kuchaytirilmas, qonunan o'qituvchining hurmati himoya qilinmas ekan, bu holatlar tuga-maydi.

Niginabonu SHUKUROVA, "Ma'rifat" muxbiri







# Murojaatlar javobsiz qolmoqda, qachon uyg'onasiz, mutasaddilar?

(Davomi, boshi 2-, 3-, 8-, 9-betlarda.)

9. "Bolalarimiz rus tilini o'rganishga majbur emas!" (2020-yil 18-noyabr, 44-son).

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida rus tili fani qanday maqomda o'qitilayotgani bilan bog'liq savol o'rta ta'lim maktablarida tashlangan.

10. "Ona tili va adabiyot hamda o'zbek tili — alohida fanlarmi?" (2020-yil 11-dekabr, 48-son). Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomning 19-bandiga asosan pedagog kadrlarning diplomida bittadan ortiq tayyorlov yoki ta'lim yo'nalishi, mutaxassislik yoki ixtisoslik ko'rsatilgan bo'lsa, ular dars berayotgan har bir fani bo'yicha alohida attestatsiyadan o'tishi belgilangan. Bu ona tili va adabiyot hamda o'zbek tilidan dars o'tayotgan o'qituvchiga qo'llanilishiga e'tirozlar bildirilgan.

11. "Zamonamiz aysiz aybdorlari yoxud Sherzod Shermatovga yashirin xat" (2020-yil 8-iyul, 23-son). Unda maktablarda faqat ingliz tili faniga e'tibor qaratilib, nemis va fransuz tili fanlari dars soatlari qisqartirilayotgani hamda ushbu fan o'qituvchilari ishsiz qolayotgani aytilgan.

12. "Har bir o'qituvchiga imtiyoz kerak!" (2020-yil 11-noyabr, 43-son). Xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning iqtisodiy ahvoli, turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan islohotlar to'laqonli bajarilmayotgani tanqid ostiga olinadi. O'qituvchilarga alohida imtiyozlarning yo'qligi, maosh oshgani bilan dars soatlari kamaygani kabi muammolar o'qituvchi obro'sining oshishiga monelik qilayotgani aytiladi.

13. "Ma'rifat" gazetasiga ochiq xat" (2020-yil 30-sentabr, 36-son). Nurotalik nafaqadagi pedagog Abdunazar Nabiyev o'zining ta'lim sohasiga qo'shgan hissasi, ko'p yillik faoliyati haqida ma'lumot berib, qilgan mehnatlari evaziga hech qachon rag'batlantirilmagani, mukofotlarga loyiq ko'rilmagani haqida kuyinib yozadi.

14. "Xorijiy til faqat ingliz tili emas!" (2020-yil 4-noyabr, 42-son). Xalq ta'limi tizimida chet (ingliz, nemis, fransuz) tillari ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi xususida tanqidiy fikrlar bildirilgan.

15. "Otello va Hamlet bir xil obraz...mi?" (2020-yil 28-avgust 31-son) — Ushbu maqolada amaldagi 9-sinf "Adabiyot" darsligi yuzasidan fikrlar bildirilgan. Jumladan, darslikda

Otello haqidagi fikrlar boshqa darslikdagi Hamlet obraziga berilgan ta'riflardan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib qo'yilgani aytilgan.

16. "Vazirning bayonoti, maktablarda ona tili darsliklari va ta'limdagi kolonial meros haqida" (2020-yil 22-iyul, 25-son). Maqolada o'zbek tili metodikasi tahlil qilinib, ona tili o'qitishning real ahamiyatini to'la anglamaslik tanqid ostiga olingan.

17. "Ingliz tili darsligi mualliflariga ochiq xat" (2020-yil 10-iyun, 19-son). 10-sinf o'quvchisining ingliz tili darsligi borasidagi fikrlari bayon qilingan. O'quvchi amaldagi darsliklar zerikarli va bir qolipda, eskicha ruhda ekanidan noroziligini bildirgan.

18. "Fransuz va nemis tili o'qituvchilari nima qilsin?" (2020-yil 28-oktabr, 41-son). Xalq ta'limi tizimida fransuz va nemis tillari o'qitilishiga e'tibor qoniqarli emasligi ustida so'z boradi. Xususan, ko'plab maktablarda chet tili sifatida ingliz tili tanlanayotgani hisobiga nemis va fransuz tili o'qituvchilari 4-6 oylik qayta tayyorlov kursida o'qib kelib dars bilan ta'minlangan holatida ham endi maktabga ingliz tili bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis o'qituvchi kelsa sertifikat bilan dars berayotgan o'qituvchi o'rnini bo'shatib berishiga to'g'ri kelayotgani va buning natijasida ko'plab o'qituvchilar ishsiz qolayotgani aytilgan.

19. "Qishloqdan adib chiqmaydimi?" (2021-yil 20-yanvar, 3-son). Kasbi tumanidagi 100 nafardan ziyod pedagog jamoasiga ega 10-maktabning adabiy jurnallari va boshqa o'z sohasiga taalluqli nashrlarning birortasiga ham obuna bo'lmagani tanqid qilingan.

20. "Dars o'tasanmi, yo'qmi, hujjating joyida bo'lsin!" (2021-yil 3-mart, 9-son). Maqolada maktab o'qituvchisining Xalq ta'limi bo'limidan kelgan tekshiruvchilarning darsni buzgan holda sinfxonaga kirib tekshiruv o'tkazishi yetmaganidek, dars o'tayotgan o'qituvchini sinfxonadan chaqirib olib, hisobot so'rganliklari tanqid ostiga olingan.

21. "Shuncha dissertatsiya himoya qilinmoqda, lekin nega rivojlanish sust?" (2021-yil 17-fevral, 7-son). Ta'lim-tarbiya jarayonida sifat va samaradorlik sustligining bir necha omillari sanab o'tilgan. Xususan, Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi dolzarb muammolar tanqid qilingan.

22. "Sun'iy fanga ehtiyoj yo'q!" (2021-yil 20-yanvar, 3-son). Xalq ta'limi vazirligi va Respublika ta'lim markazi "Milliy o'quv dasturi" (7-11-sinflar kesimida) loyihasida va "2020-2021-o'quv yili uchun tayanch

o'quv rejai"da geografiya faniga "Iqtisodiy bilim asoslari" va "Tadbirkorlik asoslari" o'quv kurslarini qo'shib, sun'iy fan tashkil etilgani va bu fan "Geografiya va iqtisodiyot" deb atalgani noto'g'ri bo'lgani, aslida geografiya va iqtisodiyot fanlari butunlay boshqa-boshqa o'quv bloklariga tegishli ekanligi haqida fikr yuritilgan.

23. "O'qituvchilarga qachon avtkreditlar ajratiladi?" (2021-yil 6-yanvar, 1-son). Maqolada 2018-yil 14-avgustda qabul qilingan Prezident qarorida o'qituvchilar uchun avtomobil va uy-joy kreditlari ajratilishi ko'zda tutilgan bo'lishiga qaramay hamon bu ishlarining amalga oshmayotgani haqida yoziladi.

24. "Bu maktablar o'zimizniki?" (2021-yil 24-fevral, 8-son). Sahifada Sirg'ali (Yangiyahoy) tumanidagi yangi qurilgan maktab binolarida lavha va ko'rgazmali matnlarning davlat tilida yozilmaganligi tanqid qilingan.

25. "Tuzatmaguningizgacha gapiraveramiz", "Qulog'i ko'rinmay dumin so'raymiz" (2021-yil 24-fevral, 8-son). Mazkur ikki maqolada 6- va 8-sinf "Ona tili" darsliklaridagi xatoliklar tanqid qilingan.

26. "Maktab tilshunos olimlarning tajriba quyonchasi emas!" (2020-yil 22-iyul, 25-son). Maktab darsliklari namunasini maktab o'qituvchilari nazoratidan o'tkazib berish talab qilinarkan, darsliklar maktab o'qituvchilari hamkorligida yozilishi lozimligi ta'kidlangan.

OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIMI VAZIRLIGI tomonidan javobsiz qoldirilgan xatlarga asos bo'lgan maqolalar:

1. "Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi ishga joylashishi nega muammo bo'lmoqda?" (2021-yil 13-yanvar, 2-son). Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash mexanizmidagi kamchilik va muammolar tahlil qilingan.

2. "Shuncha dissertatsiya himoya qilinmoqda, lekin nega rivojlanish sust?" (2021-yil 17-fevral, 7-son). Ta'lim-tarbiya jarayonida sifat va samaradorlik sustligining bir necha omillari sanab o'tilgan. Xususan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimidagi dolzarb muammolar ham.

3. "Oliy ta'lim tizimi jiddiy islohotga muhtoj" (2021-yil 10-fevral, 6-son). Oliy ta'lim tizimidagi qator muammolarga yechim sifatida takliflar bildirilgan.

4. "Bizda malaka oshirish istagini bildirganlar yo'q" mazmunidagi xatlar Markazga rus tilida kelmoqda" (2021-yil 10-mart, 10-son).

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Ustavi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan davlat muassasasi sifatida tasdiqlanganligi sababli vazirlik ham Markaz duch kelayotgan muammolarga e'tibor qaratishini xohlagan edik.

5. "Bo'l, bo'l, yotoqxonaga hamshira bo'l" (2021-yil 17-mart, 11-son). O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabalar yotoqxonasidagi tibbiyot xonasida shart-sharoit va kerakli dori-darmonlar yo'qligi, oqibatda talabalar sog'ligi xavf ostiga qolayotgani aytiladi.

6. "Yangi O'zbekistonga — yangi yuqori texnologiya" (2021-yil 10-mart, 10-son). Robotlar haqidagi tushunchalarni ta'limning barcha bo'g'inlaridan boshlab kiritish, zamonaviy robototexnikani yaratishga yo'naltirilgan ilmiy markazlar yoki vazirlik huzurida ilmiy-tadqiqot institutini tashkil qilish taklifi bildirilgan.

7. "Fizika fanini o'qitishda kasbga yo'naltirish muammolari" (2020-yil 23-oktabr, 35-son). Bugungi kunda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'lim tizimida foydalanilayotgan o'quv adabiyotlari informatsion texnologiyalar davrida ehtiyojni qondira olmayotgani hamda fanni kasbga yo'naltirib o'qitish masalasi ko'tarilgan.

8. "Talaba qachongacha sarson bo'ladi?" (2021-yil 20-yanvar, 3-son). Oliy ta'lim muassasalari talabalarini turar joy bilan qamrab olish muammolari ustida so'z yuritilgan. Ya'ni, oliygo'hlardagi talabalar soniga nisbatan ularning yotoqxonalari quvvati juda ham past ko'rsatkichda ekanligi va buning ortidan talabalar hayotida kelib chiqayotgan muammolar ko'rsatib o'tilgan.

9. "Ishsizlar ko'payishiga hissa qo'shmang!" (2020-yil 5-avgust, 27-son). O'z faoliyatini qayta tiklayotgan kollejlarda yo'nalishlari belgilanishida hudud imkoniyatlari to'g'ri o'rganilmagani tanqid qilingan.

DAVLAT TEST MARKAZI tomonidan javobsiz qoldirilgan xatga asos bo'lgan maqola:

"Davlat test markaziga savollarim bor" (2021-yil 17-fevral, 7-son). Davlat test markazi direktori o'rinbosari Sardor Rajabovning "Ma'rifat" gazetasida 2021-yil 10-fevral kuni chop etilgan "O'quvchilarning maktabda olgan baholari oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida inobatga olinadi" nomli maqolasi yuzasidan bir nechta savollar o'rta ta'lim tashlangan.

Tilshunoslik ilmi va til siyosati vatanparvarlikni talab qiladi.

Mutaxassis minbari

Tovush tirik hodisa. U nafas bilan, jon va qalb bilan bevosita bog'liq.

“Yangi alifbo loyihasi”ning muhokama muddati cho'zilgani yaxshi bo'ldi. Chunki bu ulkan va muhim masala bo'lib, alifboning milliy til tabiatiga, tovush tizimiga imkon qadar mutanosib bo'lishi nafaqat ona tilimiz, balki ona Vatanimiz taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu – mubolag'a emas. Odamlarimiz chiroyli gapirishi, har bir so'z va tovushni to'g'ri, aniq talaffuz qilishi yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan mamlakatimizning ruhiy-ma'naviy iqlimiga ijobiy, xayrli ta'sir o'tkazishi tayin. Pala-partish so'zlash, xom-xatala yozish, agar bu epidemiya darajasiga chiqsa, hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi. Hech qachon ezgu natija bermaydi.

Mintaqamizda ro'y bergan birinchi Renessans ijodkorlaridan biri, buyuk faylasuf bobomiz Abu Nasr Forobiy qomusiy olim sifatida o'zining “Kitab marobit al-ulum” (“Fanlarning kelib chiqishi”) asarida tovush ilmi haqida fikr yuritib, yozadi:

“Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u muvozanatini yo'qotganlarning xulq-atvorini tartibga soladi, komillikka erishmaganlarni komillikka yetaklaydi va muvozanatda bo'lganlarni muvozanatda tutib turadi. Bu ilm tana sog'lomligi uchun ham foydali, chunki tana bemor bo'lganda qalb ham shikastlanadi, tana to'ssiqqa uchraganda qalb ham to'ssiqqa uchraydi. Binobarin, qalb shifo topgani kabi tana ham shifo topadi, qalbnig quvvati shunday harakat sodir etuvchi tovushlar sharofigi bilan muvozanatlashadi, ham javhargacha moslashadi”.

Agar e'tibor berilsa, buyuk alloma tovushlar hamda u haqdagi ilmni qalb javhari, substansiya bilan bog'lamoqda. Bunday yana shunday ma'no nuqadagi, tilda muayyan tovushning buzilishi, noto'g'ri talaffuz etilishi milliy qalb javhargacha shikast yetkazishi mumkin. Ma'lumki, yangi davrdagi o'zbek tilshunosligi, jadid bobolarimizning qisqa faoliyatini aytmaganda, asosan sovet davrida shakllandi. O'sha davrda qabul qilingan

Baxtiqaro “ng” (ikkinchi maqola)

talay imloviy va fonetik qoidalarda sovet mafkurasi-ning zararli izlari yaqqol seziladi. Milliy tovushimiz “ng” (hozircha shunday yozishga majburimiz) uchun ikki harf olinishi bekorga, tasodifiy qilingan deysizmi? Yo'q. Ona tilimizni imkon qadar buzish, katta og'alari tiliga o'rin bo'shatish zarur edi. Nahotki, shu mash'um xatoni istiqloq davrida bilib turib takrorlasak?!

Yaqinda shu tovush haqida bir tilshunos bilan gaplashib qoldim. U “ng” uchun ikki harf olish tarafdori ekanligi, agar bir harf olinsa qo'pol xato bo'lishini qat'iyat bilan aytib, o'z “daliil”larini keltirar ediki, ular oldida ikki harfli “ng”ning amaliyotdagi buzg'unchiligi go'yo hech gap emasdek...

Tilshunoslik ilmi va til siyosati vatanparvarlikni talab qiladi. Prezidentimiz katta umidlar bilan tashkil qilgan Davlat tilini rivojlantirish departamenti va “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi qonun loyihasini tayyorlaydigan ishchi guruhi boshida vatanparvar tilshunolar turishi lozim. Men bu bilan ular vatanparvar emas, deydishdan yiroqman. Lekin ularning xatti-harakati, amaliy ish faoliyati ko'p narsani belgilaydi. Xulosa chiqarishga imkon beradi.

Zero, til ham Vatandir, Vatanning ulug' uzvidir. Keskinligim uchun kechirim so'rab, aytamanki,

“ng” tovushi uchun ikki harf olish kerak deguvchilarning “daliil”lari mutlaqo ilmiy asosga ega emas. Qator qardosh turkiy xalqlar ushbu tovush uchun bir harf olishgan va bu bilan osmon uzilib yerga tushgan emas. Faqat yaxshi bo'lgan, xolos.

Ishchi guruh “ng” tovushi uchun bir harf olish tarafdorlarining fikrini inobatga olishi zarur. Bu, nafaqat ilmiy-amaliy, balki umummilliy masala. Qolaversa, falsafiy masala.

Mumtoz romanimiz “O'tkan kunlar”da shunday bir sahna bor. Toshkentda xonlikka qarshi qo'zg'olon ko'tarilgach, Toshkent hukmdori Azizbekning yaqin odami bo'lgan Yusufbek hojining o'g'li Otabek Qo'qonda buzg'unchilikka ayblanib, “xonning yonidagi xoqon” Musulmonqulga ro'baro' kelganda, uning savollargacha javob berishdan ko'ra sukutni afzal ko'radi:

“Chindan ham Musulmonqul bu sukutdan tahqirlandi, tutuni ko'kka ko'tarilar ekan baqirdi: – Nega javob bermaysan?!

– Siz meni qanday tanig'an bo'lsangiz – bo'lingiz, men, o'shandog' kishining o'g'li, – dedi beik. – Men bilan otam siz bilan qushbegiga bir necha turlik bo'lib tanilsak-da, o'z vijdonimiz oldida bir turlikkindirmiz! Shuning uchun siz tilagan tarafingizga hukm qilingiz-da, buyrug'ingizni beraveringiz!”.

Bu mashhur lavhani keltirishimizdan maqsad, birinchidan, undagi “ng”larning go'zal ishtiroki va tarovatini ta'kidlash, ikkinchidan, ishchi guruh a'zolari xuddi Musulmonqul kabi bir harf tarafdorlari fikrini bir chetga surib qo'yib, o'zlari tilagan tarafga hukm qilib, buyruqlarini beravermasalar, deymiz.

Milliy tovush bilan o'ynashib bo'lmaydi. Yuqorida aytilganidek, tovush ham tirik hodisa. Shunday ekan – baxtiqaro “ng” baxti ochilishini kutmoqda.

Suvon MELI, filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Savodsizlikka qarshi qurolimiz bor

Millatning buguni, ertasi savodxonlik darajasi bilan o'lchanadi. Bilamizki, xalqimiz shu kunga qadar bir nechta yozuv turlaridan foydalangan. Afsuski, imlodagi haligacha yakdil qarorga kela olmadik.

“Ma'rifat” gazetasi 2021-yil 12-may sonida filologiya fanlari doktori Suvon Melining “Baxtiqaro “ng” nomli maqolasini o'qidim. Unda “ng” birikmasi n va g tovushlari talaffuzi, imlosi bo'yicha bir qator muhim gaplar aytilgan. Ammo maqola so'ngida muallif bir tovush-bir harf tamoyiliga ko'ra “ng” fonemasini ifodalash uchun harfli birikma o'rni-ga yaxlit bir harf “ng” olinishi lozim”, degan fikr bilan maqolaga nuqta qo'ygan.

To'g'ri “ng” harf birikmasi va n, g tovushlarini ayrim o'rnlarda farqlay olmayotganimiz rost, ammo har qanday vaqtda, davrda, imloda bunday muammal bo'lgan, bu narsa alifbodagi o'zgarishlarga olib kelmasligi kerak (Sh, G' tovushlarini o'zgartirish ham shular jumlasidan). Alifboni va alifbodagi birkamalar imlosini o'zgartirish savodsizlik urchishiga olib kelishi aniq.

Mana, salkam 30 yillik vaqt oralig'ida bizdan katta avlod haligacha lotin alifbosidagi adabiyotlarni mutolaa qila olmaydi, yozishga ham qiynaladi.



Bu vaqtda qancha darslik, qo'llanma, badiiy adabiyotlar chop etildi. O'ylab ko'ring, bir tovushni o'zgartirish qancha-qancha muammolarni, iqtisodiy tangliklarni keltirib chiqaradi. O'zgarishlar va taraqqiyot imloda emas, iqtisodiy, madaniy sohalarda bo'lsa, xalq farovonligiga erishiladi. Alifbodagi, imlodagi, yozuvdagi o'zgarishlarni hozircha to'xtatib turganimiz ma'qul. Savodsizlikka qarshi qurol — bu imloni puxta o'rganish va o'rgatishdir — o'zgartirish emas!

Ra'no IKROMOVA, Vobkent tumanidagi 13-maktabning ona til va adabiyot fani o'qituvchisi

Aks sado

“Ma'rifat” gazetasi 2021-yil 24-mart 12-sonida bosilgan Shahzod Shodmonovning “...Shunday yashaymiz — bevatan” maqolasiga aks-sado

“Vatan, vatan, der edilar, na der erdim bilmay oni...” — Vatan nima?



“Sevmadik, sevoldimadik...”

— Onangni bag'ri! (Onangni hech quchdingmi o'zi?! Seni deb sim-sim yig'laganida bag'ringa bosib, ko'zyoshini ardingmi?) Xafa qilgach kechirim so'rab, ko'nglini olish o'rni-ga g'urumi ustun qo'yding. Holbuki, u — onang. So'zsiz, kechirgan.)

Vatan — uyim, ostonam! (Uyingga kimlar ostonaga hatlab kirishdan ogohmisan? Qo'shnilaringga razm sol, uying obodmi?)

— Tug'ilib-o'sgan tuproq! (Bu tuproqdan nimalar ummoqda: gul yoxud alaf? Nega o'zing hanuz ildiz otmading?)

— Vatan — jon tomirim! (Voajab, tomiringda qon bormi o'zi? Nahot, Vatan mehri bilan to'yingan qon yuragingga bormayotgan bo'lsa?)

Zoologiya fanidagi issiq va sovuq qonlilar terminlarini eshitgansiz, gar-

chand biz issiqqonlilarga kirsak-da, qonimiz, a'zolarimiz, hattoki yuragimiz muz qotgan. Allaqanday matohlarga berdik bor mehrimizni temir-tersaklarga ko'ngil qo'ydik. Onamizni, jigarlarnimizni sevmadik, sevoldimadik. Ayonki, yuragimiz tosh qotgan.

Yana nimalar deyolamiz, biz durustroq anglab yetmagan Vatan tuyg'usi-yu, uni sevish haqida? Yodlatilgan bejirim so'zlarni to'tiqush yangilg' takrorlashdan ne naf?

Men aytaman: ko'ngil tanlagan joy — Vatan! Ko'ngil qayerda taskin topsa, shu tomonga talpindai.

“... Endi bilsam Vatan erkon bu tanlarning shirin joni...”.

Komila HAMROEVA, O'zMU talabasi

# "Ma'rifat" repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 35-varianti

### ONA TILI

(11-sinf: I va II qism darsliklari asosida)

1. Qaysi qatorda so'z urg'usi birinchi bo'g'inga tushadi?

- A) akademik(ot) B) tugma(ot)  
C) tortma(ot) D) olma(ot)

2. Qaysi javobdagi iboralarning antonim juftligi xato berilgan?

- A) ichiga chiroq yoqsa yorishmaydigan=og'zi qu-  
log'ida  
B) yerga ursang ko'kka sapchaydigan=og'zing qani  
desa qulog'ini ko'rsatadigan  
C) O'qdek to'g'ri bo'lmoqlik, kibr-u havoga yo'l  
ochmasligi lozim... — negadir o'ylanib qoldi sohib-  
qiron.  
D) miyasi achib ketmoq=kallasi g'ovlab ketmoq

3. To'g'ri so'zi qaysi qatorda "Rost, adolatli so'z, shuningdek, g'irromlikni bilmaydigan odam haqi-  
da" ma'nosini anglatgan?

- A) Vatan, aylanarman bir keskir toshga, Qoshingga  
o'q kabi uchib borarman.  
B) Qamchi yeb o'rganmagan uchqur bedov oldinga  
o'qday otilib, egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi.  
C) O'qdek to'g'ri bo'lmoqlik, kibr-u havoga yo'l  
ochmasligi lozim... — negadir o'ylanib qoldi sohib-  
qiron.  
D) Hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o'rmi-  
ga bog'-rog'ga ko'milgan, ko'chalari o'qday to'g'ri, op-  
poq, ko'rkam qishloq barpo qildi.

4. Admiral, kros, parta, divan, sport, memuar, zamon, somon, biyobon, pomidor, xushxabar, boldoq, soddadil, kamomad, boloxona.

Ushbu so'zlardan nechitasi to'g'ri yozilgan?  
A) 10 tasi B) 13 tasi C) 14 tasi D) 5 tasi

5. Quyidagi so'zlardan nechitasiga jo'nalish ke-  
lishigi qo'shimchasi qo'shilishi natijasida tovush al-  
mashinishi kuzatiladi?

Bu, savdo-sotiq, u, tadorik, bog', tog'  
A) 2 tasi B) 4 tasi C) 1 tasi D) 3 tasi

6. Qaysi gapda nutqning jo'yaliligiga putur yet-  
kazuvchi so'z qo'llanmagan?

- A) Onamning jahllari battar qo'zg'ab, shang'illa-  
gancha quloq-chakkamga shapaloq tushirdilar.  
B) Bobom nimagadir xafa. — Keldingmi, do'ndig'im?  
— deb xomush jilmaydilar.  
C) Nimalar qilyapsiz, ona?! — o'g'li yolvoruvchan  
ovoz bilan yaltoqlanib Tazkiraning oldida tiz cho'kkan.  
D) Kitobni ohista varaqlab, chiroyli qiroat bilan  
o'qiy boshladi.

7. Qaysi javobda urg'u oxirgi bo'g'ingga tushadi-  
gan so'zlar berilgan?

- A) infeksion (o'choq), kitob (o'quv predmeti)  
B) etnik (qatlam), kollokvium (ma'ruzasi)  
C) mexanik (kuch), memorial (obida)  
D) qandaydir (kishi), ko'ylakbop (mato).

8. Qaysi javobdagi barcha so'zlar qo'shib yozil-  
ladi?

- A) olib//sotar, uch//burchak  
B) boshdan//oyoq, olib//kelmoq  
C) temir//yo'l, osma//ko'prik  
D) so'z//boshi, xarid//qilmoq

9. Qaysi qatorda iboraning ma'nosi noto'g'ri  
izohlangan?

- A) uchiga chiqqan — o'taketgan  
B) yer bilan osmoncha — beqiyos (juda)  
C) turgan gap — doimo

D) ikki dunyoda (ham) — hech qachon

10. Qaysi javobdagi barcha so'zlar imlo qoidasi-  
ga ko'ra to'g'ri yozilgan?

- A) Ota nasixati oldindan qimmat.  
B) Matosi — go'zal hulg, ipi — murosa.  
C) Sabr ham go'zal libos.  
D) Farzandi arjumant.

11. Chayon so'zi o'rnida tabu sifatida qaysi so'z  
qo'llangan?

- A) arqon B) gajak C) uzun opa D) arg'amchi

12. Qaysi javobda disfemizm qo'llangan?

- A) vafot etdi B) olamdan o'tdi C) o'ldi D) qazo qildi

13. O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa, Oltin bosh-  
ning kalla bo'lgani shudir.

Ushbu gapdagi ostiga chizilgan so'zda qaysi ma'no  
ko'chishi turi qo'llanilgan?  
A) sinekdoxa B) metonimiya C) vazifadoshlik D)  
metafora

14. Har doim bo'yoqdor bo'ladigan birlik qaysi  
qatorda berilgan?

- A) ibora B) gap C) so'z D) qo'shimcha

15. Bugun jug'rofiya o'qituvchisi darsga kelma-  
di. Xomtok qilaman deb so'ridan yiqilib, oyog'ini  
sindiribdi. Ajoyib "xushxabar"dan keyin bir zumda  
sinf bo'shadi-qoldi.

Ushbu parchada qo'shtirmoqning ishlatilish sababi-  
ni izohlang.

- A) atoqli ot bo'lgani uchun  
B) asar nomi bo'lgani uchun  
C) turdosh ot bo'lgani uchun  
D) kinoya ma'nosida qo'llangani uchun

UYGA VAZIFA: Hurmatli o'quvchilar, ushbu sonda 5 —  
11-sinfilar bo'yicha tuzilgan testlarni yakunlaymiz! Avvalgi  
sonlarda berilgan testlar asosida bo'shliqlarni to'ldirib, o'z  
bilimlaringizni mustahkamlang. "Ma'rifat" repetitori" jamoa-  
si barchangizga omad tilaydi!

G'anisher HAQNAZAROV,  
Xatirchi tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi

### MATEMATIKA

(6–11-sinf materiallari bo'yicha)

16. Hisoblang:  $6 - \left(3\frac{1}{2} : 3 - \frac{1}{2}\right) \cdot 7,5$

- A) 5 B) 1 C) 6 D) 8

17. Agar a, b, c — raqamlar bo'lsa, ko'paytirish  
jadvalidan foydalanib a+b+c ning qiymatini toping.

x	a	b	c
a		15	
b			20

- A) 3 B) 4 C) 12 D) -4

18.  $A = \frac{25}{13} + \frac{32}{17} - \frac{22}{19}$  va  $B = \frac{14}{13} + \frac{19}{17} - \frac{16}{19}$

bo'lsa, (A+B)<sup>2</sup> ning qiymatini toping.

- A) 16 B) 25 C) 36 D) 49

19. 4\*8<458 tengsizlik o'rinli bo'lishi uchun yul-  
duzcha o'rniga qanday raqamlar qo'yish mumkin?

- A) 1,2,3,4,5 B) 0,1,2,3,4  
C) -1,0,1 D) 3,4,5,6

20.  $\frac{2}{3} + \left(-\frac{1}{2}\right) \cdot \left(-\frac{2}{3}\right) - (-5)$  ning

qiymatini toping?

- A) -5 B) 6 C) -6 D) 5

21.  $f(x) = \begin{cases} 2x-5, & x \geq 3 \\ 5x+3, & x < 3 \end{cases}$  va  $g(x) = x + 6$

funksiyalar berilgan. f(g(4)) ning qiymatini toping.

- A) -7 B) 5 C) -9 D) 15

22.  $\frac{3 \cdot 6 \cdot 9 + 9 \cdot 18 \cdot 27 + 15 \cdot 30 \cdot 45 + 18 \cdot 36 \cdot 54 + 24 \cdot 48 \cdot 72}{1 \cdot 2 \cdot 3 + 3 \cdot 6 \cdot 9 + 5 \cdot 10 \cdot 15 + 6 \cdot 12 \cdot 18 + 8 \cdot 16 \cdot 24}$

ifodaning uchdan bir qismini toping.

- A) 27 B) 9 C) 3 D) 54

23. 39 ni bo'lganda qoldiq 9 chiqadigan barcha  
natural sonlarning yig'indisini toping.

- A) 37 B) 55 C) 47 D) 45

24. Kalendarning bir bo'lagi ko'rsatilgan holda,  
11-aprel sanasi qaysi kunga to'g'ri kelishini  
aniqlang.

Mart						
D	S	CH	P	J	SH	Y
				1	2	3
4	5					

- A) Dushanba B) Chorshanba  
C) Payshanba D) Juma

25. 34567...697071 nechta xonali son?

- A) 81 B) 133 C) 90 D) 131

26. Quyidagi ko'paytmalardan qaysi biri 45 ga  
qoldiqsiz bo'linadi?

- A) 15 · 38 · 23; B) 40 · 52 · 16;  
C) 75 · 49 · 18; D) 15 · 16 · 332

27. Agar a=5 va b=2 bo'lsa, (4a-(a+b)):13 ning  
qiymatini toping.

- A) 4 B) 1 C) 6 D) 7

28. Taqqoslang: a=11<sup>20</sup> va b=100<sup>10</sup>

- A) a=b B) a>b  
C) a<b D) a=b+1

29. -6, -1, -5, 2, 4, 1 sonlar orasidan ixtiyoriy ik-  
kitasi tanlab olindi va bir-biriga ko'paytirildi. Eng  
kichik son nechaga teng bo'lishi mumkin?

- A) 2 B) -24 C) -18 D) -30

30. 20dm+25sm+4mm= ? (mm.larda ifodalang)

- A) 2254 B) 20254  
C) 254 D) 2054

Hamza XUDOYBERDIYEV,  
G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

### O'ZBEKISTON TARIXI

(11-sinf: bir darslik doirasidagi testlar)

31. Quyidagi qaysi hujjatda: "O'zbekistonning  
kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan  
holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy  
qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslan-  
ib, O'zbekiston SSRning davlat mustaqilligini e'lon  
qiladi" degan satrlar mavjud?

- A) "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi  
asoslari to'g'risida"gi qonunda  
B) "Mustaqillik Deklaratsiyasi"da  
C) O'zbekiston SSR Prezidentining "SSSRning  
O'zbekistonda joylashgan ichki qo'shinlarini O'zbekis-  
ton SSR Prezidentiga bo'ysundirish to'g'risida"gi far-  
monida  
D) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

# "Ma'rifat" repetitori

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 35-varianti

32. Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk marotaba afv etish to'g'risidagi farmon qachon qabul qilindi?

- A) 2016-yilda B) 2019-yilda  
C) 2018-yilda D) 2017-yilda

33. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Markaziy harbiy okrugi qaysi hududlarni qamrab oladi?

- A) Toshkent shahri va Toshkent viloyati  
B) Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlari  
C) Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlari  
D) Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari

34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga ilk Murojaatnomasi qachon e'lon qilindi?

- A) 2017-yil 12-yanvar B) 2018-yil 22-fevral  
C) 2017-yil 22-dekabr D) 2018-yil 22-yanvar

35. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida har bir ustuvor yo'nalish uchun o'ziga xos ranglar ajratilgan bo'lib, ularning qaysi sohani ifoda etishini aniqlang.

- a) tillarang; b) moviy;  
c) oq rang; d) qizil rang; e) siyohrang.

1) davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillash-tirish; 2) qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; 3) iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish; 4) ijtimoiy sohani rivojlantirish; 5) xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.

- A) a-2, b-1, c-5, d-4, e-3  
B) a-3, b-2, c-5, d-4, e-1  
C) a-3, b-1, c-5, d-4, e-2  
D) a-2, b-1, c-3, d-5, e-4

36. O'zbekistonda 10000 (o'n ming) va 50000 (ellik ming) so'mlik banknotlar qachon muomalaga kiritildi?

- A) 2018-yilda B) 2016-yilda  
C) 2017-yilda D) 2013-yilda

37. Transport kommunikatsiyasi korporatsiyalarini ular tashkil topgan yillar bilan muvofiqlashtir-ing.

1) «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi;

2) «O'zbekiston avtomobil transporti» davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi;

3) «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik kompaniyasi.

- a) 1993-yil; b) 1994-yil; c) 1992-yil.  
A) 1-a; 2-b; 3-c B) 1-a; 2-c; 3-b  
C) 1-b; 2-a; 3-c D) 1-c; 2-a; 3-b

38. O'zbekistonda Chevrolet Spark rusumidagi avtomobillarni ishlab chiqarish qachondan yo'lga qo'yildi?

- A) 2011-yilda B) 2010-yilda  
C) 2009-yilda D) 2012-yilda

39. Konstitutsiyaning qaysi moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi» degan muhim qoida belgilab qo'yilgan?

- A) 31-moddasida B) 18-moddasida  
C) 8-moddasida D) 40-moddasida

40. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-sessiyasida diniy bag'rikenglik masalasida qanday g'oyani ilgari surgan edi?

A) BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish

B) BMTning Turli din vakillari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish

C) BMTning Musulmonlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish

D) BMT Bosh Assambleyasining «Imom Buxoriy saboqlari» nomli loyahasini ishlab chiqish

41. Bir yilda tashkil etilgan O'zbekistondagi xoriy oliy ta'lim muassasalari filiallarini aniqlang.

A) M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti va I.M. Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti

B) Singapur menejmentni rivojlantirish instituti va Italiyaning Turin politexnika universiteti

C) Turin politexnika universiteti va G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi

D) Janubiy Koreyaning Inha universiteti va Turin politexnika universiteti

42. Londonda chop etilgan 10 jildlik «Tabiiy birikmalar (O'simlik zaxiralari, tuzilishi va xossalari)» nomli noyob ma'lumotnoma yurtimizdagi qaysi muassasa tomonidan tayyorlangan?

- A) Yadro fizikasi instituti  
B) Immunologiya instituti  
C) Noorganik kimyo instituti  
D) O'simlik moddalari kimyosi instituti

43. 2016-yilgi Rio-de-Janeyro shahrida (Braziliya) bo'lib o'tgan XXXI yozgi Olimpiada o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritgan sportchilarmiz nomini toping.

1) Hasanboy Do'stmatov; 2) Shahobiddin Zoirov; 3) Fazliddin G'oyibnazarov; 4) Muhammadjon Ibragimov; 5) Shahram G'iyosov; 6) Bektemir Meliqo'ziyev; 7) Murodjon Ahmadaliyev; 8) Ruslan Nuriddinov.

- A) 1, 2, 3, 8 B) 1, 2, 7, 8  
C) 1, 3, 5, 6, 8 D) 1, 2, 5, 6, 8

44. O'zbekistonda rasman mavjud bo'lgan xotira kunlarini aniqlang.

- A) 9-may, 31-avgust, 2-sentabr  
B) 9-may, 3-sentabr, 29-dekabr  
C) 9-may, 24-mart, 2-iyul  
D) 9-may, 2-sentabr, 31-oktabr

45. «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev» nomli kitob qaysi xorijiy mamlakatda chop etilgan?

- A) Xitoyda B) Turkmanistonda  
C) Koreyada D) Qozog'istonda

Akbar ZAMONOV

### 33-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A	D	C	B	A	D	A	A	C	C	B	C	B	A	D
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
B	C	D	B	B	D	B	B	B	D	C	B	B	B	A
TARIX														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
B	D	D	C	C	C	D	B	C	A	C	D	A	A	C

### Iqtidor

## Bugunni ertaga topib bo'lmas

Vaqt, soat, daqiqa va soniyalar! Bu so'zlar zamirida qudratli kuch, buyuk imkoniyatlar mavjud. Ammo bu imkoniyatlardan har kim har xil foydalanadi. Xo'sh, men vaqtdan qanday foydalanyapman? Kelajagim uchun poydevor bo'lgan qimmatli onlarimni behuda o'tkazayotganim yo'qmi, deya o'ylab qolaman gohida.



9 yoshimdan badiiy asar o'qishni boshladim. Asar qahramonlarini qalbimdan his qildim: goh Hoshimjon bo'lib sho'xliklar qilganday bo'lsam ("Sariq devni minib"), goh Orifjon bo'lib ("Besh bolali yigitcha") har bir mashaqqat yo'lini kezdanday-

tanishdim. Kitoblardagi turfa taqdirar, obrazlar xilma-xilligi, qahramonlarning mashaqqatli hayot yo'llaridagi sabr-matnat, iroda kabi tuyg'ular qalbinga ezgulik urug'ini qadadi. O'qishga ishtiyoqim ham tengdoshlarimga qaraganda ancha kuchaydi.

Prezidentimizning "Prezident maktablari ochilishi haqida"gi qaroridan so'ng shu maktabda o'qish uchun bor imkoniyatimni ishga solib tayyorgarlik ko'rdim. Badiiy asarlardan olgan bilimim, tasavvurim imtihonda men-ga qo'l keldi. Saralash va asosiy imtihonlardan yuqori ball olib, Nukus shahridagi Prezident maktabining 5-sinfiga qabul qilindim. Bu muvaffaqiyat zimmamga katta mas'uliyat yukladi. Xususan, 2 yillik o'quv

davomida Hippo, Speeling Bee, AMC xalqaro matematika va ingliz tili olimpiadalarida faol ishtirok etdim. Kelajak orzularim bir talay: maktabni tugatib, nufuzli xorijiy oliy o'quv yurtida tahsil olish. Vatanim uchun munosib yetuk kadr, komil inson bo'lish hamda bizga ko'rsatilgan ishonchni oqlash, xalqimga xizmat qilish.

Barcha orzu-niyatlarga tinimsiz mehnat va o'qish-izlanish bilan erishiladi. Mehnatning mevasi esa juda shirin bo'ladi. Qadrli tengdoshlarim, sizlarga ham har soniyani behuda, har onni besamar o'tkazmaslikni tavsiya qilaman. Vaqt — uchqur ot misoli. Zero, bugungi imkon ertaga sizga qayta berilmaydi.

Sa'dulla RIZAYEV,  
Nukus shahridagi Prezident  
maktabi o'quvchisi

## Ehtiros

# Xushnud ustoz fazilatlarini

Mashoyixlar diyori Xorazmda insonning qancha umr ko'rgani emas, uning qanday iz qoldirganiga qarab baho beradilar. Sababi — inson o'zining aqliy salohiyatidan real hayotda qay darajada foydalangani muhim.



olim G'aybulla as-Salom yozganidek: "olimlar bor, picha inson emas yoki aksincha, yaxshi inson. Faqat unda olimlik xislatlari yetishmaydi". Xushnud og'ada esa bu ikki fazilat uyg'unlashganini ko'rish mumkin. Umr faslining chorak qismi universitetda rahbarlik lavozimlarida o'tgan bo'lsa-da, u hech qachon o'zini yo'qotmadi. Kibrga, manmanlikka berilmadi. Kamtarlik, hamisha o'zini bir xil tutish, har doim o'zining muallim ekanligidan faxrlanish — yoshullari bu ikki fazilatni uyg'unlashtirish olganining isbotidir. Xushnud og'aning ilmiy tadqiqot ishlaridan ham chekinmay 4 ta o'quv qo'llanma, 50 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar va ilmiy maqolalar chop ettirgani, o'z sohasi — qiyosiy grammatika bo'yicha Praga, Varshava, Moskva, Kiyev va Dushanbe shaharlarida bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy anjumanlardagi chiqishlari ham undagi muvozanat tengligi tamoyiliga amal qilinayotganidan darak beradi.

Xushnud og'a — kamtar, mehribon ota, bobo. Kamtarligi, kamsuqumlighi, odilligi tufayli hukumatimiz tomonidan "O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi" va "O'zbekiston oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan. Vaholanki, yoshullari ayrim qo'shtirnoq ichidagi "chaqqonlar"ga o'xshab o'zini turli davlat mukofotlariga tavsiya etish imkoniyatiga ega edi. Biroq bunday qilmadi. Mardlik va tantilik bilan qanoat qildi. Natijada, yaxshi niyat va amalli inson bo'lgani bois Yaratganning o'zi uni munosib taqdirladi. Ya'ni 5 nafar solih va soliha o'g'il-qiz farzandlar, 20 nevara, 22 nafar chevara berdi. Farzandlari "oqqan daryo oqaveradi" deganidek, yoshullarining yo'ldan borib, fanning turli sohalarda ilm bilan shug'ullanib turli darajadagi ilmiy darajalarga ega bo'lishdi.

Mana, qizi Sayyova Bobojonova biologiya fanlari nomzodi, dotsent. Kuyovi Rahimboy Rahimov texnika fanlari doktori, professor. Nevarasi Otobek Bobojonov yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PnD). Yana bir nevarasi Bobojon va Nazokat filologiya fanlari yo'nalishida ilmiy ishini himoya qilamiz, deb turishibdi.

## Xushnud Bobojon — ustoz

Xushnud Bobojonovning yana bir olimlik va odamiylik ila yo'g'rilgan fazilati uning shogirdparvarligidir. Aslida, ustoz va shogird o'rtasidagi munosabat faqat rasmiyatchilik asosiga qurilmaydi. Chunonchi, ustoz shogirdi ilmiy darajaga ega bo'lishi jarayonidagina unga ilmiy rahbarlik qilishi oson. Haqiqiy ustoz shogirdini insoniy mehr orqali hayotda to'g'ri yo'lga boshlab, shogirdning jamiyatda munosib o'rni topishiga beg'araz ko'maklashadi. O'zaro so'f insoniy munosabat odamlarni bir-biriga yaqinlashtirib, ularning qadrdon insonlarga aylanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun Xushnud og'aning minnatdor shogirdlari ko'p.

## Chin inson ibratini

Ma'naviyat insonni tubanlikdan, manmanlikdan va g'afat bosishdan asraydi. U insonga tafakkur, mutolaa va ijod qilish hamda ma'rifatli bo'lish imkoniyatini beradi. Yoshullari ham aynan ma'naviyat va ma'rifatga oshno bo'lgani bois o'z hayot yo'lining mazmunli bo'lishini ta'minladi. Qadrladi — qadrlandi, sevdidi — sevildi, mehr berdi — mehr ko'rdi, mehnat qildi — rohatini ko'rdi, hurmat qildi — izzat-ikrom topdi.

O'zbekiston mustaqilligining ilk yillaridanoq yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi samarali faoliyati natijasida Xushnud og'a juda ko'p narsani o'rgandi, uni o'z hayoti davomida qo'lladi va real natijasini ham ko'rdi. Bizning tanishuvimiz ham aynan ma'naviyat orqali bo'lgan. Do'stligimiz va qadrdonligimiz hamda bordi-keldimizning yaqinlashuviga ham ma'naviyat sabab bo'lgan.

Aslida, Xushnud Bobojonovning hayot yo'li birdek tekis bo'lgani yo'q. Hayotning o'zi turli o'nqir-cho'nqirlardan iborat. Ana shunday paytda ham uni ma'naviyat qutqargan. Ya'ni sabr, qanoat, bosliqlik, shukronalik kabi ma'naviyatning mezonlariga amal qilgani bois u qaltis vaziyatlardan ham beshikast chiqqan.

Xushnud og'a!

Muhtasham umringizning 80-bekati muborak bo'lsin!

Bu tabriklarimizni 90 yoshingizda davom ettirishni yaratgandan so'rab qolamiz.

Muhammadjon QURONOV,  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi  
direktorining birinchi o'rinbosari,  
pedagogika fanlari doktori, professor  
Eshmuhammad QODIROV,  
Toshkent davlat yuridik  
universiteti professori,  
yuridik fanlar doktori

## Xushnud domla — olimlikni bezagan va odamiylikni qadrlagan inson

Hayotda ziyolilar o'rtasida ko'p ishlatiladigan "olim va odam" iborasining biri-biriga nisbat berilishi bejiz emas. Darvoqe, O'zbekiston fan arbobi, yetuk tarjimashunos

## O'tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligiga

# "Qalbning oppoq daftari..."

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis va dramaturg sifatida xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan nodir asarlar muallifidir. Shu bilan birga uning bir-biridan qiziqarli va mazmundor, xalqimiz hayoti va muammolari, milliy adabiyotimizning dolzarb masalalari yuzasidan yozgan ko'pgina maqolalari ham diqqatga sazovor. Ana shunday maqolalardan biri "Qalbning oppoq daftari"dir.

Yozuvchi maqola boshida maktabda savodini chiqarib, chuqur ta'lim bergan ustozlariga, universitetda yuksak bilim bergan domlalariga hamisha ta'zimda ekanligini aytadi. O'quvchilik davri haqida hikoya qilib, maktab direktori Odil Qayumov degan pedagog vafot etganida ko'chaga odam sig'may ketganligini, hatto DAN xodimi transport harakatini vaqtincha to'xtatib turganini bayon qiladi. Ana, haqiqiy o'quvchining obro'yi. Yozuvchi ayni paytda ham ana shunday fidoyi o'quvchilar borligi, ularning hurmatini joyiga qo'yadigan shogirdlar ham ko'pligi, ammo keyingi paytlarda ba'zi peda-

goglarining kiyinish madaniyati susayib ketgani, bolaning ilmiga qarab baholamay, olgan sovg'alari evaziga qaro qo'yish holdari, shunchaki vaqtini o'tkazish uchun ishlayotgan ilmsiz o'quvchi, domlalar ham topilishi haqida qayg'urib yozadi: "Murg'ak bolaning oppoq qalb daftariga "insoniylik" degan so'zni o'yib yozish huquqi faqat o'quvchiga berilgan. Aytaylik, dehqon yerga nobop urug' sochsa, bir yil hosilsiz qoladi. Agar pedagog bolaning qalbiga nobop urug' sochsa-chi? Bu narsa bir umrlik fojiga olib kelmaydimi? Bu fojia bir kishining emas, ko'plaming fojiasiga aylanmaydimi? Shu bois men bosh-

qa birorta kasbni o'quvchilik hunari bilan tenglashtira olmayman".

O'tkir Hoshimov maqolasida oliy o'quv yurtlaridagi ahvol bundan battar ekani, ilmi bolalar qolib, tanish-bilishchilik orqali ilmsiz ba'zi yoshlar talaba bo'lish hollari ham uchrab turishi haqida kuyinib yozgan edi.

Maqola e'lon qilingandan so'ng adib muxlislaridan rahmatnoma tarzida yozilgan ko'plab xatlar olgan. Lekin o'sha payti ham, undan keyin ham ta'lim sohasida deyarli o'zgarish bo'lmadi.

Nihoyat oxirgi to'rt yil ichida ta'lim sohasi tubdan isloh qilindi. Jumladan, o'quvchi zimmasidagi qo'shimcha ishlar: viloyatlarda yig'im-terim payti darsdan qolib, dalada o'quvchilarning o'quvchisi bilan ishlashi, shaharda esa ko'chalarni supurish-sidirish, oqlash-ko'klash, kuzda esa yuqori sinf o'quvchilari, talabalar, o'quvchi-domlalar, ishchilar — hamma paxta terish ishlarida qatnashar edi. Bularning barchasiga, nihoyat chek qo'yildi.

Pedagog yangiliklardan doimo xabardor bo'lishi, darslarni qiziqarli no'anaviy — yangicha usulda o'tishi va albatta, oliy ta'lim, xalq ta'limi sohasida ishlayotgan pedagoglar shaffoflikka to'la amal qilishlari shart, deb bilaman. Lekin ba'zida, ayni vaqtda buning aksini ham uchratamiz. Ushbu muammoning yechimi shuki, shunchaki ishlayotgan bilimi past va poraxo'rlik bilan shug'ullanib kelayotgan o'quvchi-domlalar, yaxshisi, boshqa ishga o'tganlari ma'qul.

Dunyoda ikki kasb egasi xatoga yo'l qo'yishga haqqi yo'q. Birinchisi o'quvchi, ikkinchisi shifokor. Agarda o'quvchilar bolaga chuqur bilim bermasa, uning ma'naviy qashshoq bo'lishiga zamin yaratadilar. Shifokor bemorni noto'g'ri davolasa, uni nogironligiga, ba'zidan ham yomon oqibatlariga sababchi bo'lishi mumkin.

Men ham ustozman. O'quvchidek sharaffi nomga dog' tushirmay, O'tkir Hoshimov ta'biri bilan aytganda, bolajonlarimizning oppoq, beg'ubor qalb daftariga insoniylik, ezgulik, komillik, va albatta, ma'rifat urug'ini sochaylik, aziz hamkasblar!

Guljamila A'ZAMXO'JAYEVA,  
O'zbekiston Respublikasi  
xalq ta'limi a'lochisi,  
xalq ta'limi fidoyisi

## 2021-2022-O'QUV YILI UCHUN XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI TASARRUFIDAGI TABIIY FANLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTA'LIM MAKTABI IXTISOSLASHTIRILGAN 5-SINFIGA IQTIDORLI O'QUVCHILARNI QABUL QILADI

Qabul joriy yilning 10-iyunidan boshlanib, 10-iyulga qadar davom etadi. Ota-onalarga qulaylik yaratish hamda qabul jarayonlari shaffofligini ta'minlash maqsadida hujjatlar to'liq elektron shaklda qabul qilinadi.

BUNING UCHUN OTA-ONALAR JORIY YILNING 10-IYUNIDAN BOSHLAB MV.MAKTAB.UZ SAYTI ORQALI MAKTABGA HUJ-JATLARNI ELEKTRON SHAKLDA TOPSHIRISH-LARI MUMKIN.

SARALASH TANLOV-LARI DAVLAT TEST MAR-KAZI TOMONIDAN JORIY YILNING 12-30-IYUL KUN-LARI O'TKAZILADI.



Manzilimiz: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1-uy.  
Murojaat uchun telefonlar: (71) 289-09-35, 289-07-53, (90) 131-41-12, (94) 687-57-74.

**Reimov Nietbay Baynazarovichning 06.01.01 — Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "Orolbo'yi tuproqlari unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-iyun kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI.  
Tel/faks: (78) 159-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

**Sheraliyeva Surayyo Shuxratovning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Tishlarning restavratsiyasida ishlatilgan kompozit qo'llanishini klinik-eksperimental asoslash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.  
Tel/faks: (71) 230-20-65; e-mail: tdsi2016@mail.ru

**Kuldashov Bobomurod Xusanovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Soya navlarining hosildorligiga ekish sxemalari, me'yori va inokulyantlarning ta'siri" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI.  
Tel/faks: (78) 159-62-84, 150-61-37; e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

**Qdirbayeva Xurliman Mangitbayevnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Umumta'lim maktablari o'quvchilarida ijtimoiy intellektni rivojlantirish texnologiyasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 230105, Nukus shahri, P.Seyitov ko'chasi, raqamsiz uy.  
Tel/faks: (61) 229-40-75, 229-40-75.

**Ergashev Qandiyor Xorun o'g'lining 02.00.06 — Yuqori molekulyar birikmalar (kimyo fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Bombyx mori xitoxanining gidroksiapatit bilan kompozitlarining sintezi va xossalari" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 2-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"b" uy.  
Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

**Turaqulov Rustam Ismatullayevichning 14.00.06 — Kardiologiya ixtisosligi bo'yicha "Surunkali yurak yetishmovchiligi kamqonlik bilan kechganda angiotenzin aylantiruvchi ferment geni polimorfizmining eritropoetin bilan bog'liqligini o'rganish hamda tashxislash va davolashga differensial yondashish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30/04.12.2019. Tib 64.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 29-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Osiyo ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 237-31-57, 237-38-16; e-mail: info@cardiocenter.uz

**Begimqulov Dilshod Qalandarovichning 04.00.04 — Gidroteologiya va muhandislik geologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Qarshi shahri hududini suv bosishi va drenajlanishini baholash baholash hamda modellashtirish" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidroteologiya va injenerlik geologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019. GM.96.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy.  
Gidroteologiya va injenerlik geologiyasi instituti.  
Tel/faks: (71) 262-75-92, 262-62-15; e-mail: gidro\_ilmkeng@mail.ru

**Fozilov Uktam Abdurazzoqovichning 14.00.21 — Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Ortodontik davolashda kariyesning rivojlanishini tashxislash va oldini olishni mukammallashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc/PhD.04/30.12.2019. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-iyul kuni soat 12:30 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.  
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

**Aktamov Bekzod Uktamovichning 04.00.04 — Gidroteologiya va muhandislik geologiyasi ixtisosligi bo'yicha "GIS texnologiyalari asosida seysmik riskni regional darajada baholashning kartografik modeli (Jizzax viloyati misolida)" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidroteologiya va injenerlik geologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019. GM.96.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 30-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy.  
Gidroteologiya va injenerlik geologiyasi instituti.  
Tel/faks: (71) 262-75-92, 262-62-15; e-mail: gidro\_ilmkeng@mail.ru

**Jumayev Sayfiddin Qodirovichning 05.10.02 — Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi hamda 05.09.05 — Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosliklari bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida olingan antipirenlar bilan yog'och materiallarini yong'indan himoyalash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019. T.11.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 6-iyul kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"b" uy, TAQI, Arxitektura fakulteti.  
Tel/faks: (71) 235-43-30, 234-15-11 e-mail: devon@taqi.uz

**Tojiyev In'omjon Ilxomovichning 05.09.05 — Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Arxitekturaviy yodgorliklarni restavratsiya qilish uchun modifikatsiyalangan gipsli qorishmalar (Buxoro misolida)" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019. T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 6-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"b" uy, TAQI, Arxitektura fakulteti.  
Tel/faks: (71) 235-43-30, 234-15-11; e-mail: devon@taqi.

**Boboxujayev Shuhrat Umarovichning 03.00.09 — Umumiy genitika ixtisosligi bo'yicha "G.hirsutum L. turiga mansub g'o'zaning alohida xromosomalari almashirilgan shakllarining sitogenetik tahlili" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genitika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-iyul kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Yuqori-Yuz ko'chasi, Genitika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.  
Tel/faks: (71) 264-22-30, 264-79-85, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

**Xotamov Asadulla Toshtemirovichning 05.09.01 — Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar hamda 18.00.02 — Rayonlashirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarni rejalashtirish. Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi (texnika fanlari) ixtisosliklari bo'yicha "Shaharsozlikda uy-joy fondining eskirishini baholash metodologiyasi va monitoring tizimining ilmiy asoslari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019. T.11.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 30-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"b" uy, TAQI, Arxitektura fakulteti.  
Tel/faks: (71) 235-43-30, 234-15-11; e-mail: devon@taqi.uz

**Madrimova Aziza Gaibnazarovnaning 14.00.04 — Otorinologiya ixtisosligi bo'yicha "Markaziy nerv sistemasiyning perinatal patologiyasida chaqaloqlarda eshitish funksiyasining xususiyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-iyul kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.  
Tel/faks: (71) 230-20-65; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi tomonidan Shodmonqulov Sardor To'xtasin o'g'liga 2011-yil 10-iyunda berilgan L № 125286 raqamli diplom yo'qolgani sababli  
**BEKOR QILINADI.**



## HURMATLI YOSHLAR VA OTA-ONALAR!

*Farzandingiz oliy ta'lim muassasasi TALABAsi bo'lishini xohlaysizmi?  
Yuqori darajada bilim beruvchi TEZLASHTIRILGAN tayyorlov kurslarini qidiraysizmi?*

### NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI QOSHIDAGI PULLI TAYYORLOV BO'LIMI TAKLIF ETADI!

2021-2022-o'quv yilida BARCHA DARAJADAGI VA BARCHA YOSHDAGI ABITURIYENTlarni oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari uchun o'tkaziladigan test sinovlariga universitetning malakali professor-o'qituvchilari maxsus tezlashtirilgan dastur asosida quyidagi fanlar bo'yicha tayyorlaydi:

- ❖ Ona tili va adabiyot;
- ❖ O'zbekiston tarixi;
- ❖ Tarix;
- ❖ Ingliz tili;
- ❖ Matematika;
- ❖ Fizika;
- ❖ Biologiya;
- ❖ Kimyo.

Dars jarayoni qat'iy belgilangan  
jadval hamda kuchli nazorat ostida  
olib boriladi! Shoshiling, biz bilan  
o'z orzuingizga yetasiz!

*Bizning tayyorlov kurslarimizga yozilib siz  
quyidagi BEPUL imkoniyatlarga ega bo'lasiz:*

- ✓ ma'ruza matnlari;
  - ✓ test savollari;
  - ✓ universitet kutubxona fondidan foydalanish;
  - ✓ tarqatma materiallar;
  - ✓ xotira va diqqatni rivojlantiruvchi, h ayajon va qo'rquvni yo'qotishga qaratilgan
- MAXSUS PSIXOLOGIK TRENINGLAR!**



**Manzil:** Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi TAYYORLOV BO'LIMI.

**Mo'ljal:** Chilonzor metro bekatini.

**Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon: +99871 276 84 34**

**Telegram kanalimiz: @TDPU\_Abituriyent**



## Andijon qishloq xo'jaligi instituti jamoasi

“27-iyun —

Matbuot va ommaviy axborot  
vositalari xodimlari kuni”  
munosabati bilan barcha  
OAV xodimlarini qutlaymiz!



**Bayramingiz  
muborak bo'lsin,  
jamiyatimiz “shifokorlari” —  
aziz jurnalistlar!**

## Marifat

### TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba  
uyushmasi Respublika kengashi.

### Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150. V-4727. Tiraji 9877.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

### TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;  
kotiyyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Marifat" dan  
materiallarni ko'chirib  
bosish tahririyat  
ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqiriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

### MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: [www.marifat.uz](http://www.marifat.uz)

**Dizaynerlar:** Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
**Navbachi muharrir:** Zilola Madatova.  
**Navbachi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Korxonaning manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.